XIU
PINNACLE
Research House

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnali

International scientific journal

INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

ISSN: 3093-8570

VOLUME: 1
ISSUE: 4
2025

Digital object identifier
Google Scholar
OpenAIRE

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Muassislar:
“Pinnacle Research House” MCHJ
Xalqaro innovatsion universitet,

TAHRIRIYAT HAY’ATI:

Bosh muharrir:
Amin Mallayev - f.f.n., dots.

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Sardor Negmatjonov

Mas’ul kotib:
Shahnoza Kaxxarova - f.f.n., prof.

Tahririyat a’zolari:
Saidahror G‘ulomov – i.f.d., akademik. Rossiya.
Nazar Hakimov – f.f.d., prof. Rossiya.
Shodmon Vohidov – t.f.d., prof. Tojikiston.
Hüseyin Baydemir - f.f.d., prof., Turkiya
Nurettin Demir - f.f.d., prof., Turkiya.
Jayna Satkenova - f.f.n., prof., Qozog‘iston.
Akmal Saidov – yu.f.d., akad. O‘zbekiston.
Azim Jabborov – p.f.d., prof. O‘zbekiston.
Yulduz Ergasheva – t.f.d., prof. O‘zbekiston.
Boynazar Yo‘ldoshev – f.f.d., prof. O‘zbekiston
Rahima Shirinova – f.f.d., prof. O‘zbekiston.
Nafas Shodmonov – f.f.d., prof. O‘zbekiston.
Gulbahor Tojiyeva - f.f.d., prof. O‘zbekiston.
Shahobiddin Nuriddinov – f.f.d., prof. O‘zbekiston
Bahrom Egamberdiyev – f.m.f.d., prof. O‘zbekiston
Dilbar Muxamedova – p.f.d., prof. O‘zbekiston.
Haydarbek Bobobekov – t.f.d., prof. O‘zbekiston
Sayfullo Tursunov – t.f.d., prof. O‘zbekiston.
Jamshid Jabborov – f.f.f.d. (PhD), dots. O‘zbekiston.
Feruza Rajabova – p.f.f.d. (PhD). O‘zbekiston
Iristi Quttimuratova - f.f.f.d. (PhD), dots., Qoraqalpog‘iston.
Nargiza O‘roqova – t.f.n., dots. O‘zbekiston.
Anvar Qobilov – i.f.n., dots. O‘zbekiston.
Akmal Ochilov – p.f.f.d. (PhD). O‘zbekiston
Shohruh Fayziyev – t.f.f.d. (PhD), dots O‘zbekiston
Sherxon Qorayev - f.f.f.d. (PhD), O‘zbekiston
Shaxnoza Musurmanova - f.f.f.d. (PhD), O‘zbekiston

Jurnal xalqaro ISSN 3093-8570-son raqami bilan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yilning mayida №825399-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan

“Xalqaro innovatsion tadqiqotlar” jurnali quyidagi fanlar:
01.00.0 – Fizika-matematika fanlari
05.00.00 – Texnika fanlari
06.00.00 – Qishloq xo‘jaligi fanlari
07.00.00 – Tarix fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari
09.00.00 – Falsafa fanlari
10.00.00 – Filologiya fanlari
13.00.00 – Pedagogika fanlari
19.00.00 – Psixologiya fanlari
bo‘yicha ilmiy maqolalarni chop etadi.

Jurnalda chop etilgan materiallardan ko‘chirma olinganda “Xalqaro innovatsion tadqiqotlar” jurnalidan olindi” degan jumla berilishi shart. Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir.

Tahririyat bilan aloqa:
Telefon: +998 88 652 96 98
E-mail: info@xiuresearch.com
Sayt: xiuresearch.com

Tahririyat manzili:
Qarshi shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 405-uy, Xalqaro innovatsion universitet binosi.

Jurnal yiliga 12 marta chop etiladi.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

“PINNACLE RESEARCH HOUSE” MCHJ

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal
(1-tom, 4-son)

INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

International scientific journal
(Volume 1, Issue 4)

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Международный научный журнал
(Том 1, Выпуск 4)

VOLUME:1 ISSUE:4

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BOSHQARUV, BUDJETLASHTIRISH VA MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Toshtemir Haydarov,
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha mustaqil izlanuvchisi
Xalqaro innovatsion universitet, O‘zbekiston

RESULTS-ORIENTED MANAGEMENT, BUDGETING, AND FINANCIAL INNOVATIONS: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Toshtemir Haydarov,
Independent Researcher in Economics
International Innovative University, Uzbekistan

УПРАВЛЕНИЕ, ОРИЕНТИРОВАННОЕ НА РЕЗУЛЬТАТ, БЮДЖЕТИРОВАНИЕ И ФИНАНСОВЫЕ ИННОВАЦИИ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Тоштемир Хайдаров,
самостоятельный соискатель по экономическим наукам Международный инновационный университет, Узбекистан

E-mail: thaydarov@xiuedu.uz
Orcid: https://orcid.org/0009-0004-4832-0879
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.18531650

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish doirasida natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (RBM) va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (RBB) mexanizmlarining joriy etilishi hamda ularni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy innovatsiyalar tahlil qilingan. Tadqiqotda davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy sohalarda aniq natijalarga erishishda RBM va RBBning o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, raqamli g‘aznachilik tizimlari, dasturli budjetlashtirish va moliyaviy hisobotlarni raqamlashtirish kabi moliyaviy innovatsiyalarning mazkur jarayonlardagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish, davlat moliyasi, moliyaviy innovatsiyalar, dasturli budjet, O‘zbekiston.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы внедрение механизмов управления, ориентированного на результат (RBM), и бюджетирования, ориентированного на результат (RBB), а также поддерживающих их финансовых инноваций в рамках реформирования системы управления государственными финансами в Узбекистане. В исследовании раскрыта роль RBM и RBB в повышении эффективности расходов государственного бюджета, рациональном использовании ресурсов и достижении конкретных результатов в социальных сферах. Кроме того, освещено значение таких финансовых инноваций, как цифровые казначейские системы, программное бюджетирование и цифровизация финансовой отчетности, в данных процессах.*

Ключевые слова: *управление, ориентированное на результат; бюджетирование, ориентированное на результат; государственные финансы; финансовые инновации; программный бюджет; Узбекистан*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Annotation. *This article analyzes the implementation of Results-Based Management (RBM) and Results-Based Budgeting (RBB) within public financial management reforms in Uzbekistan, with particular attention to the role of financial innovations. The study examines how RBM and RBB contribute to improving budget efficiency, strengthening accountability, and achieving measurable social outcomes. The role of digital treasury systems, program budgeting, and financial digitalization is also highlighted.*

Keywords. *results-based management, results-based budgeting, public finance, financial innovation, Uzbekistan.*

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy va institutsional o‘zgarishlar sharoitida davlat boshqaruvi tizimi oldida turgan asosiy masalalardan biri — cheklangan moliyaviy resurslardan maksimal ijtimoiy va iqtisodiy natija olishdir. An’anaviy ravishda davlat budjeti resurslarga, ya’ni sarflangan mablag‘lar hajmiga asoslanib rejalashtirilgan bo‘lsa, bugungi kunda bunday yondashuv samaradorlik, shaffoflik va javobgarlik talablariga to‘liq javob bermay qolmoqda. Shu sababli jahon amaliyotida davlat boshqaruvi va moliya tizimlarida tub konseptual o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Ana shunday o‘zgarishlarning markazida natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (Results-Based Management — RBM) va uning moliyaviy ifodasi bo‘lgan natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (Results-Based Budgeting — RBB) konsepsiyalari turadi. Ushbu yondashuvlar davlat faoliyatini faqat bajarilgan ishlar yoki o‘zlashtirilgan mablag‘lar bilan emas, balki aniq belgilangan maqsadlar, o‘lchanadigan natijalar va ijtimoiy ta’sir orqali baholashni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, “qancha mablag‘ sarflandi?” degan savol o‘rniga “qanday natijaga erishildi?” degan asosiy savol qo‘yiladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatdiki, RBM va RBB davlat siyosatining samaradorligini oshirish, jamoatchilik oldida hisobdorlikni kuchaytirish va strategik maqsadlarga erishishda muhim instrument sifatida xizmat qilmoqda. Biroq bu yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun murakkab institutsional islohotlarni, yuqori darajadagi ma’muriy salohiyatni va zamonaviy moliyaviy infratuzilmani talab qiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvi va davlat moliyasini isloh qilish jarayonlari mazkur global tendensiyalar bilan uyg‘un holda kechmoqda. Davlat budjeti tizimini modernizatsiya qilish, dasturli budjetlashtirishni joriy etish, strategik rejalashtirishni kuchaytirish va sohaviy ko‘rsatkichlar asosida natijalarni baholashga o‘tish bu boradagi muhim qadamlar hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya kabi aholi hayot sifatiga bevosita ta’sir etuvchi sohalarda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Shu bilan birga, ushbu jarayonlarda moliyaviy innovatsiyalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli g‘aznachilik tizimlari, elektron hisobotlar, budjet ma’lumotlarini raqamlashtirish, dastur “pasportlari” va KPI tizimlarining joriy etilishi RBM va RBB mexanizmlarining amaliy ishlashi uchun zarur institutsional asosni yaratmoqda. Moliyaviy innovatsiyalar natijalarni o‘lchash, monitoring qilish va tahlil etish imkoniyatlarini kengaytirib, davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot O‘zbekistonda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (RBM) va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (RBB)ni joriy etish amaliyotini, ularning moliyaviy innovatsiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini hamda davlat moliyasi samaradorligiga ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari nafaqat O‘zbekiston uchun, balki boshqa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi kutilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mazkur tadqiqot natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (RBM) va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (RBB) konsepsiyalarining O‘zbekiston davlat moliyasini boshqarish tizimida joriy etilishi, amaliy qo‘llanilishi hamda moliyaviy innovatsiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini kompleks o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tanlanishida ushbu mavzunung ko‘p qirraliligi, institutsional xususiyati va empirik ma’lumotlarga tayanish zarurati hisobga olindi.

Tadqiqot kompleks va integral yondashuv asosida amalga oshirilib, unda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirildi. Bu esa natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyot nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Normativ-huquqiy tahlil. Tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti, davlat moliyasini boshqarish va strategik rejalashtirishga oid qonunlari, Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari tahlil qilindi. Mazkur hujjatlar RBM va RBBning huquqiy-me’yoriy asoslarini belgilab berishi nuqtayi nazaridan o‘rganildi. Shu orqali natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish mexanizmlarining institutsional mustahkamligi baholandi.

Iqtisodiy-statistik va qiyosiy tahlil. Tadqiqotda davlat budjeti xarajatlari, dasturli budjet ko‘rsatkichlari, ijtimoiy sohalar bo‘yicha natija indikatorlari (ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya) bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilindi. Ushbu ma’lumotlar asosida:

1. resurslar taqsimoti bilan erishilgan natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik;

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

2. RBB joriy etilgan va etilmagan holatlarda samaradorlik farqi;
3. moliyaviy innovatsiyalarning RBM jarayonlariga ta’siri aniqlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston tajribasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar (OECD, Markaziy Osiyo davlatlari) tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Institutsional va tizimli tahlil. Natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish faqat moliyaviy instrument sifatida emas, balki davlat boshqaruvining yaxlit tizimi sifatida ko‘rib chiqildi. Bu jarayonda:

1. davlat organlari o‘rtasidagi funksional munosabatlar;
2. hisobdorlik va javobgarlik mexanizmlari;
3. monitoring va baholash (M&E) tizimlarining roli tahlil etildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish. Tadqiqotda RBM va RBB bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, OECD, PEFA) hisobotlari va tahliliy materiallari o‘rganildi. Adabiyotlar tahlili natijasida:

1. natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv konsepsiyasining evolyutsiyasi;
2. natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning turli modellari;
3. moliyaviy innovatsiyalarning davlat moliyasidagi o‘rni va ahamiyati aniqlandi.

Metodologik cheklovlar. Tadqiqotda mavjud statistik ma’lumotlarning cheklanganligi, ayrim ko‘rsatkichlarning to‘liq shakllanmaganligi hamda natijalarni o‘lchashdagi institutsional muammolar inobatga olindi. Shu bilan birga, ushbu cheklovlar tadqiqot natijalarining umumiy ilmiy qiymatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmaydi, balki kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlar ochib beradi.

TADQIQOT NATIJALARI

O‘tkazilgan tahlillar O‘zbekistonda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (RBM) va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (RBB) elementlarini joriy etish davlat moliyasini boshqarish samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, dasturli budjetlashtirish asosida moliyaviy resurslarni rejalashtirish va natijalarga bog‘lash amaliyoti budjet jarayonida yangi sifat bosqichini shakllantirayotgani kuzatildi.

Davlat budjeti samaradorligiga ta’siri. Empirik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, RBB joriy etilgan sohalarda budjet mablag‘larining ijrosi darajasi nisbatan barqaror va prognoz qilinishi mumkin bo‘lgan holatga o‘tmoqda. Xususan, budjet xarajatlarini dasturlar kesimida rejalashtirish orqali:

1. mablag‘larning maqsadsiz sarflanish holatlari qisqarmoqda;
2. budjet ijrosi jarayonida qayta taqsimlash (viratsiya) ehtiyoji kamaymoqda;
3. xarajatlar bilan natijalar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik shakllanmoqda.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Bu holat natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning davlat moliyasida resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Sohaviy natijalar tahlili. Tadqiqot doirasida ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida RBM mexanizmlarini qo‘llash natijalari alohida o‘rganildi. Natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. ta’lim sohasida dasturlar maqsadlari va natija ko‘rsatkichlari (qamrov, sifat, infratuzilma) aniq belgilab olinayotgani;
2. sog‘liqni saqlash sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini baholash imkoniyati kengaygani;
3. ijtimoiy himoya sohasida manzillilik va to‘lovlar samaradorligini o‘lchash mexanizmlari shakllanayotgani.

Bu jarayonlarda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv davlat organlarini faqat faoliyat yuritishga emas, balki aniq ijtimoiy natijalar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga undayotgani aniqlandi.

Moliyaviy innovatsiyalarning roli. Tahlil natijalariga ko‘ra, RBM va RBB mexanizmlarining samarali ishlashi moliyaviy innovatsiyalar bilan bevosita bog‘liq. Raqamli g‘aznachilik tizimlari, elektron hisobotlar va avtomatlashtirilgan monitoring platformalari:

1. natija ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish;
2. ma’lumotlar sifatini oshirish;
3. hisobdorlik va shaffoflikni kuchaytirish imkonini bermoqda.

Mazkur innovatsiyalar natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni formal hujjatlar darajasida emas, balki amaliy boshqaruv instrumenti sifatida qo‘llash imkoniyatini kengaytirmoqda.

Hududiy kesimdagi farqlar. Hududiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, RBM va RBBni joriy etish natijalari viloyatlar va tumanlar kesimida bir xil emas. Institutsional salohiyat yuqori bo‘lgan hududlarda natija ko‘rsatkichlarini rejalashtirish va baholash tizimi tezroq shakllanmoqda. Bu esa natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvni muvaffaqiyatli joriy etishda kadrlar salohiyati va boshqaruv madaniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, O‘zbekistonda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (RBM) va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (RBB) davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishda real ta’sir ko‘rsata boshlagan. Biroq ushbu ta’sirning barqarorligi moliyaviy innovatsiyalar, institutsional salohiyat va tizimli monitoringga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

MUHOKAMA

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Olingan natijalar O‘zbekistonda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (RBM) va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (RBB)ni joriy etish davlat moliyasini boshqarish tizimida muhim institutsional siljishlarni boshlab berganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur jarayonlarning amaliy samaradorligi va barqarorligi qator ichki va tashqi omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni tanqidiy tahlil qilish zarur.

Avvalo, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishning joriy etilishi ko‘p hollarda formal institutsional islohot darajasida qolib ketish xavfini keltirib chiqaradi. Amaliyotda ayrim holatlarda natija ko‘rsatkichlari budjet hujjatlariga kiritilgan bo‘lsa-da, ular qaror qabul qilish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmayotgani kuzatildi. Bu esa natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvni mazmunan emas, shaklan joriy etish xavfini yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, RBM va RBB samaradorligi ko‘p jihatdan ko‘rsatkichlar sifatiga bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim sohalarda natija indikatorlari juda umumiy, o‘lchash qiyin yoki real ijtimoiy ta’sirni to‘liq aks ettirmaydi. Bunday holatda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish budjet jarayonida haqiqiy boshqaruv instrumenti emas, balki hisobot uchun xizmat qiluvchi mexanizmga aylanib qolishi mumkin.

Uchinchidan, institutsional va kadrlar salohiyati masalasi alohida e’tiborni talab qiladi. Natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv faqat moliyaviy yoki texnik islohot emas, balki boshqaruv madaniyatining o‘zgarishini taqozo etadi. Ayrim hududlarda kadrlarning RBM va RBB mohiyatini chuqur anglamasligi, monitoring va baholash ko‘nikmalarining yetarli emasligi natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni amalda to‘liq qo‘llashni cheklamoqda.

To‘rtinchidan, moliyaviy innovatsiyalar joriy etilayotganiga qaramasdan, ularning natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish bilan integratsiya darajasi hali yetarli emas. Raqamli g‘aznachilik va elektron hisobot tizimlari ko‘p hollarda ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash funksiyasini bajarmoqda, ammo ular orqali olingan ma’lumotlar strategik qaror qabul qilish jarayonida to‘liq foydalanilmayapti. Bu esa moliyaviy innovatsiyalarning salohiyati to‘liq ishga solinmayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston tajribasini xalqaro amaliyot bilan taqqoslaganda, natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni bosqichma-bosqich joriy etish yo‘li tanlanganini ijobiy jihat sifatida qayd etish mumkin. Bu yondashuv tizimli xatolar xavfini kamaytirish, mahalliy sharoitlarga moslashish va institutsional salohiyatni asta-sekin rivojlantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, RBM va RBBni muvaffaqiyatli joriy etish faqat normativ-huquqiy asoslarni yaratish bilan

cheklanmasligi lozim. Bu jarayon strategik fikrlash, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, moliyaviy innovatsiyalarni mazmunan integratsiya qilish va institutsional javobgarlikni kuchaytirishni talab qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish jarayonida natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (RBM) va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (RBB)ni joriy etish strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuvlar davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish, budjet mablag‘larini milliy rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog‘lash hamda jamoatchilik oldida hisobdorlikni kuchaytirish uchun zarur institutsional asosni shakllantirmoqda.

Islohotlar nuqtayi nazaridan qaralganda, RBM va RBBni samarali amalga oshirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tizimli qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Birinchidan, natija ko‘rsatkichlari budjet qarorlarining markaziy elementiga aylanishi lozim. Budjet mablag‘larini taqsimlashda faqat tarixiy xarajatlar emas, balki aniq o‘lchanadigan natijalar va ijtimoiy ta’sir asosiy mezon sifatida qo‘llanilishi kerak. Bu esa natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni formal hujjatdan amaliy boshqaruv vositasiga aylantiradi.

Ikkinchidan, natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvni joriy etishda institutsional javobgarlik aniq belgilanishi shart. Har bir davlat dasturi va budjet yo‘nalishi bo‘yicha natijalar uchun mas’ul organlar va mansabdor shaxslar aniq belgilanib, ularning faoliyati natijalar asosida baholanishi lozim. Bu boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy innovatsiyalar RBM va RBBning ajralmas qismi sifatida qaralishi kerak. Raqamli g‘aznachilik, elektron hisobot va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari faqat texnik infratuzilma emas, balki qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi analitik vositaga aylantirilishi zarur. Bu esa ma’lumotlarga asoslangan siyosat (evidence-based policy)ni rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, mahalliy darajada natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni kuchaytirish alohida ahamiyatga ega. Hududlar kesimida RBM mexanizmlarini joriy etish orqali mahalliy budjetlar aholining real ehtiyojlariga yaqinlashtirilishi, resurslardan foydalanish samaradorligi oshirilishi mumkin.

Beshinchidan, RBM va RBBni barqaror islohot sifatida mustahkamlash uchun kadrlar salohiyatini oshirish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Davlat xizmatchilari uchun natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv, monitoring va baholash, ma’lumotlar tahlili bo‘yicha tizimli o‘quv dasturlari joriy etilishi lozim.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Xulosa qilib aytganda, natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv (RBM) va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish (RBB) O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarishni yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkoniyatiga ega. Biroq ushbu imkoniyat to‘liq ro‘yobga chiqishi uchun siyosiy iroda, institutsional muvofiqlashuv va moliyaviy innovatsiyalarni mazmunan integratsiya qilish talab etiladi. Bu esa davlat siyosatining barqarorligi va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andrews, M. (2013). *The Limits of Institutional Reform in Development: Changing Rules for Realistic Solutions*. Cambridge University Press.
2. OECD (2019). *Performance Budgeting in OECD Countries*. OECD Publishing.
3. World Bank (2018). *Results-Based Management in Public Sector: A Review of International Experience*. Washington, DC.
4. Hoque, Z. (2015). *Public Sector Accounting and Accountability in Emerging Economies*. Routledge.
5. Martinez-Vazquez, J., & Boex, J. (2007). *Fiscal Decentralization and Performance-Based Budgeting*. Georgia State University.
6. Schick, A. (2007). *Performance Budgeting and Accrual Accounting*. OECD Journal on Budgeting, 7(2).
7. Robinson, M. (2016). *Performance-Based Budgeting*. International Monetary Fund (IMF Working Paper).
8. Kusek, J. Z., & Rist, R. C. (2004). *Ten Steps to a Results-Based Monitoring and Evaluation System*. World Bank.
9. PEFA Secretariat (2021). *Public Financial Management Performance Assessment: Uzbekistan*. Washington, DC.
10. Grossi, G., & Steccolini, I. (2015). *Pursuing Financial Sustainability of Local Governments*. Public Money & Management, 35(4).
11. World Bank (2020). Digital Transformation of Public Financial Management. Washington, DC.
12. OECD (2020). Innovative Public Financial Management and Budget Transparency. Paris.
13. IMF (2019). Digitalization and Public Finance. IMF Fiscal Affairs Department.
14. United Nations (2019). Results-Based Management Handbook. UN Secretariat.
15. Asian Development Bank (2021). Public Sector Management and Digital Finance Reforms in Asia. Manila.
16. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Давлат бюджети тўғрисида (йиллар бўйича).
17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Давлат бошқарувини ислоҳ қилиш ва натижага йўналтирилган бошқарув тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида.
18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Дастурли бюджетлаштиришни жорий этиш тартиби тўғрисида.
19. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги. Давлат бюджети ижроси бўйича йиллик ҳисоботлар.
20. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги. Ўрта муддатли бюджет режалаштириш (MTEF) методик қўлланмаси.

VOLUME:1 ISSUE:4

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

BUGUNGI KUNDA KUTUBXONALAR VA KITOB MUTOLAASIGA MUNOSABAT

Nilufar Xamidova Salimovna,
Xalqaro innovatsion universiteti
O‘zbek filologiyasi va jurnalistika kafedrasi
o‘qituvchisi

TODAY’S ATTITUDES TOWARD LIBRARIES AND READING BOOKS

Nilufar Khamidova Salimovna,
Lecturer at the Department of Uzbek Philology and Journalism, International Innovative University

ОТНОШЕНИЕ К БИБЛИОТЕКАМ И ЧТЕНИЮ КНИГ В НАШЕ ВРЕМЯ

Нилуфар Хамидова Салимовна,
Преподаватель кафедры узбекской филологии и журналистики Международного инновационного университета

E-mail: hamidovanilufar961@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0004-5652-6156
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.18334461

Annotatsiya. *Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo‘li esa bitta – kitob o‘qishdir. Kitob insonning eng yaxshi do‘sti va maslahatchisi, uning donolik va bilim manbaidir. Kitob tafakkur quroli, xazina kaliti, tafakkur manbai bo‘lgani uchun xalqimiz uni qadrli, obro‘li, muqaddas deb bilgan.*
Kalit so‘zlar: *kitobxonlik, kitobxonlik darajasi, mutolaa, kitobxon va kutubxona, kutubxonalar fondi, Elektron kutubxona, Raqamli resurslar.*

Аннотация. *It is no secret today that the only way to conquer the world is through knowledge. And there is only one path to mastering knowledge deeply – reading books.A book is a person’s best friend and advisor, a source of wisdom and learning. Because a book is a tool of thought, a key to treasure, and a source of intellect, our people have always regarded it as valuable, honorable, and sacred.*
Ключевые слова: *reading culture, level of readership, reading, reader and library, library collections, electronic library, digital resources.*

Annotation. *Сегодня никому не секрет, что покорить мир можно только с помощью знаний. А путь к глубокому освоению знаний один — чтение книг. Книга — лучший друг и советчик человека, источник его мудрости и знаний. Поскольку книга является орудием мышления, ключом к сокровищам и источником разума, наш народ всегда считал её ценным, уважаемым и священным.*
Keywords. *читательская культура, уровень чтения, чтение, читатель и библиотека, библиотечные фонды, электронная библиотека, цифровые ресурсы..*

KIRISH

Insoniyat hayotida, jamiyat taraqqiyotida kitob va kutubxonalarning o‘rni beqiyos. Har bir insonning kelajak orzulariga zamin yaratib beradigan maskan kutubxona hisoblanadi. Tarixdan bizga ma’lumki, insoniyat taraqqiyotining barcha

davrlarida axborot va ma’lumotlarni qayerlargadir qayd etish, saqlash, avloddan avlodga yetkazish har xil shakllarda namoyon bo‘lgan. Dastlab tilning paydo bo‘lishi, undan so‘ng yozuvning vujudga kelishi fikrlarni kelajak avlodga yetkazish imkonini kengaytirdi. Avval xalq og‘zaki ijodi ko‘rinishida, keyinchalik yozma shaklda paydo bo‘lgan ma’lumotlar almashinuvi og‘zaki va yozma adabiyotning yaratilishiga zamin yaratdi. Buning natijasi o‘laroq, dastlab og‘zaki ko‘rinishga ega matnlar yozma shaklga aylandi. Davrlar osha kitobning shakl-shamoyili, tashqi ko‘rinishi, sifati va ishlab chiqarilishi takomillashib bordi.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, ularning qalbida pok insoniy tuyg‘ular va yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda kutubxonalarning o‘rni nihoyatda katta. Aholi dunyoqarashi, ongu tafakkurini ma’rifat ila nurafshon qilib kelayotgan kutubxonalar muqaddas maskanlar sirasiga kiradi. Ayni kunda kitob mutolaasi kerakmi, yo‘qmi, degan savolni qo‘yish xuddi tashna odamga suv ichasanmi, degan savolni berishga o‘xshaydi. Zero, o‘qish, ilm olishga intilish azal-azaldan xalqimiz fitratida mavjud. Davrlar evrilishi g‘alati, bizlar kitob o‘qishga mukkasidan ketgan 70-yillarda, ota-onalarimiz “Ko‘p kitob o‘qima, miyang suyulib ketadi”, deb tanbeh berishardi. Bugungi yoshlarga kitob o‘qishni gapirsang, ensasi qotadi. Ammo biz bu o‘rinda yoshlarni mutlaqo ayblamoqchi emasmiz, agar jamiyatda bilim-ma’rifat, adabiyot qadr-qimmat topsa, albatta, aziz bolalarimiz kitobga qaytishlariga ishonaman. Bugun kitoblarni chop etish, ularni tarqatish tizimini takomillashtirish va eng muhimi, kitob chiqarish va kitobxonlikning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilayotganidan quvonishimiz kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi ta’bir joiz bo‘lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma’naviyatimizda g‘oyat ulkan voqea bo‘ldi. Mazkur farmoyish kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o‘rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko‘targanligi bilan izohlanadi. Ta'kidlanishicha, bugungi kunda matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. 1677 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot davlat ro‘yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta hududiy birlik axborot-kutubxona markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta'lim mussasalarida 200 ga yaqin axborot-

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda “Kitob olami”, “Sharq ziyokori” va “O‘zdavkitobsavdota’minot” majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan. Farmoyishning ibratli jihati shundan iboratki, unda kitob mahsulotlari nashr etish, tarqatish, kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, mavjud kamchilik, xatolar ro‘y-rost ochib berilgan. Ayniqsa, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etilmagani, ta'lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag‘lar yetarli darajada mavjud bo‘lgan manbalar hisobidan jalb etilmayotgani, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotlarini o‘tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlar yuksak talablar darajasida emasligiga alohida e'tibor berilgan. Xorij tajribasini o‘rganish, yoshlar o‘rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o‘rganish kabi masalalarning ko‘tarilgani g‘oyatda tahsinga loyiqdir.

Kitob barchamizga charog‘on yo‘lni ko‘rsatishini, ma'naviy olamimizni shakllantirishini, kelajakdagi yagona yagona to‘g‘ri yo‘lni tanlashga yordam berishini bilsakda, uni o‘qimasak, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligini tushunsakda, ammo uni “kult” darajasiga ko‘tarmasak-bu holda bizning kitob to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz xato bo‘lmaydimi?

TADQIQOT NATIJALARI

Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Arastu hakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflotundan-Abu Rayhon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiydan- Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan-Muhammadsharif Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada ahamiyati yo‘qolmaydigan

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

tadqiqotu kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqur o‘rganilishi, ular ilmiy-ma’rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi ham mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir. Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyidagi firklariga bir quloq tutaylik: “Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo‘qdir. Kitob fasohat, balog‘atda, latofatda tengi yo‘q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg‘izlikda va g‘amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do‘st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o‘tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham “Kitob aql qal'asidir”, deganlar”. (Mashriqzamin-hikmat bo‘stoni. - Toshkent, 1997. 39-bet)

Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Shuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo‘lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig‘idek asraganlarni ziyoli deb ataganlar. Ziyoli-Nur tarqatuvchi, u o‘zining xatti-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma'naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchilar hisoblangan. Darhaqiqat, har bir inson dunyoga kelar ekan, atrof-muhitga, o‘zi o‘sib-ulg‘aygan jamiyatga tafakkur nigohi bilan boqib, undan ibrat oladi, xulosalar, fikr-tushunchalar bilan boyiydi va shularga tayangan holda inson bo‘lib shakllanadi. Chinakam badiiy adabiyot ana shu fikru xulosalarni benihoya go‘zal bir tarzda ifoda etadi, eng ta’sirchan, unutilmas voqealar vositasida teranlashtiradi, mustahkamlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, adabiyot odam bolasida chin insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Unutmasligimiz kerakki, shaxsiyati mazkur mezon va fazilatlardan mosuvo kimsa halol va yaxshi ishchi yoki xizmatchi tugul, tom ma’nodagi inson ham bo‘la olmaydi. Fuqarolarida ushbu mezon va fazilatlar shakllanmagan jamiyatda esa sof ma’naviy-iqtisodiy taraqqiyotning bo‘lishi mumkin emas. Bunday jamiyatni bir-birini aldovchi, talovchi, bir-birining haqini yeyishdan qo‘rqmaydigan beshafqat olomon, desak, sira-sira xato qilmaymiz.

MUHOKAMA

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Bugungi kunda biz farzandlarimiz kitobdan uzoqlashib borayapti, degan gapga yopishib olib, bunda darrov zamonaviy texnika va texnologiyalarni, internetni ayblashga tushamiz. Holbuki, globallashayotgan dunyoda butun insoniyat texnikadan unumli foydalanmoqda, lekin ular kitoblarni, ayniqsa, mumtoz adabiyotni aslo chetga surib qo‘yishayoganlari yo‘q. Kitobxonlik darajasi borasida jahon mamlakatlari reytinglarini ko‘rib chiqib, bunga ishonch hosil qilasiz. Xorijda ushbu muammoni hal qilish yo‘llari avvalgidan qizg‘inroq, jiddiyroq yo‘sinda olib borilmoqda. Turli anjumanlar, muhokamalar, adiblar bilan uchrashuvlar, kitob bayramlari sifati ortib bormoqda. O‘rta maktablar dasturiga mutolaa bo‘yicha maxsus darslar kiritilmoqda. Bu darslarda o‘quvchilarda kitobga muhabbat, matnni tushunib, to‘g‘ri talqin qilish, eslab qolish ko‘nikma va malakalari shakllantirilmoqda. Buning natijasida AQSh, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya mamlakatlarida kitobxonlar soni ancha ko‘paygan.

Zamonaviy texnologiya va vositalar juda keng tarqalgan bugungi kunda yoshlarni, bolalarni kitob o‘qishga qiziqtirish, ularni mutolaa jarayoniga jalb qilish murakkab vazifa bo‘lib qolmoqda. Xo‘sh, butun mamlakat bo‘ylab kitob mutolaasiga rag‘batni oshirish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish uchun yana qanday ishlar amalga oshirilishi kerak? Nima qilinsa yoshlar, bolalar kitob o‘qishga jon-jahdi bilan intiladi? Kitobxonlikni targ‘ib qilishda yangi nashr qilingan asarlar reklamasini keng yo‘lga qo‘yish, mutolaani ommalashtirish bo‘yicha ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Qishloq va mahallalarda kitobxonlar klublarini tashkil etishni rag‘batlantirish, bolalar uchun kitob kechalari, o‘qilgan asarlar muhokamalari, sovrinli tanlovlarni tashkil etish, yozda salqin, qishda issiq, qulay mebellarga ega tinch va osuda o‘quv zallari, kitoblarni ijaraga berish, qarzga yoki pulini bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish, olis tumanlar, uzoq qishloqlarda kerakli kitoblarga buyurtmalar berish shoxobchalarini barpo etish ham mumkin. Biz bilamizki, bugungi kunda kitob savdosi va narxi eng og‘riqli nuqtamizga aylangan, desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Ammo kitob kartoshka yoki piyoz emas, kitob bu kitob. Uni bir kunda yoki bir oyda sotib, ayniqsa, undan tezda foyda ko‘rib bo‘lmaydi. Kitoblar taqchilligi borasida gap ketganda avvalo narx muammosiga duch kelamiz. Kitob nafaqat bilimlar manbai balki, tarbiya quroli hisoblanadi. U bilan hayotimiz mazmunli va rang-barang, tuyg‘ularimiz esa teran bo‘ladi. Kitob inson ma’naviy taraqqiyot hosilasi bo‘lishi barobarida o‘zi ham taraqqiyotga xizmat qiladi. Yangilik qilishga, kashfiyotlarni ko‘rishga, yangi narsalarni topishga o‘rgatadi.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Donishmand Sitseron “Kitobsiz uy – qalbsiz tanaga o‘xshaydi”, deb bejiz ta’kidlamagan. Kitobsevarlar bo‘lgan xonadonda har doim vaqt mazmunli tashkil etiladi. Kitob javoni bor bo‘lgan xonadonning fayzu tarovati o‘zgacha. Bugun kitob do‘konlarimizda, axborot resurs markazlaridagi kitoblar orasida durdona milliy yodgorliklarimizdan – “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk”, “Temur tuzuklari”, “Xamsa”, “Boburnoma” singari asarlarni uchratish amrimahol. Zamonaviy, iste’dodli shoirlarimizning she’riy kitoblari ham sotuvlarda deyarli yo‘q hisobi. Alisher Navoiyning yigirma jilddan iborat asarlari ma’lum bir tirajlarda bosilib chiqdi. Ammo nazarimizda bular kam, chunki Navoiy nafaqat maktab va institut kutubxonalari, balki har bir o‘zbek xonadonida bo‘lishi zarur. Navoiyni qo‘ya turing, hatto Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani har yuzta o‘quvchidan bir yoki ikkitasiga to‘g‘ri kelayotganiga nima deysiz?! Qodiriyning eng mashhur asari shunchalik kam tirajda bosilayotgan ekan, boshqalar haqida gapirmay qo‘ya qolaylik. Necha ming yillardan buyon insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, har tomonlama yetuk, kasb-hunarli va albatta, baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘st bo‘lish va kitob o‘qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Hozir televizor va matbuotda chiqish qilayotgan ko‘pgina noshirlar, mutaxassislar bu borada aniq takliflar berishga ojizlik qilishyapti. Bizningcha, buning yechimi bor, bu ham bo‘lsa, adabiy doirada e’tirof etilgan, mutaxassislar tavsiya etgan kitoblarni yirik tirajlarda chop etish. Takror bo‘lsa-da aytamizki, muallif, kitob va kitobxon o‘rtasidagi uzilishni tiklash uchun bosilayotgan kitoblarning adadini qo‘rqmasdan oshirgan holda kitob bahosini tubdan arzonlashtirish lozim. Bunday kitoblar do‘konlarda uzoq vaqt turib qolmaydi. Qolaversa, kitob mualliflari bo‘lgan zahmatkash ijodkorlar ham mehnatiga yarasha qalam haqi, ya’ni rag‘bat oladi. Moddiy va ma’naviy rag‘bat esa ularni yanada yaxshi asarlar yozishga, kerak bo‘lsa, o‘z asarlari bilan dunyo adabiyotiga chiqishga undashi turgan gap.

Bugungi kunda psixolog-olimlarimiz kitob mutolaa qilishning foydasi haqida quyidagilarni aytishmoqda:

-Mutolaa asabni tinchlantiradi.

-Mutolaa uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi.

-Mutolaa qalbni yumshatadi.

-Mutolaa miya faoliyatini yaxshilaydi.

-Mutolaa tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

-Mutolaa insonni go‘zallashtiradi.

-Mutolaa hayotdagi maqsadni anglashga va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

-Kitob o‘qiydigan insonlar hayotda faol bo‘lishadi.

-Mutolaa xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi.

-Mutolaa so‘z boyligini oshiradi.

-Mutolaa yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi.

-Mutolaa chet tilini o‘rganishni osonlashtiradi.

-Mutolaa tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.

-Mutolaa ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

-Mutolaa yaxshilik qilishga undaydi.

Kitob bizning hayotimizga faqat va faqat yaxshilik olib keladi.

Unga hamma: qariyalar, o‘rta yoshlilar, yoshlar va hatto bolalar ham muhtoj. Eng muhimi har bir inson o‘z yoshiga va dunyoqarashiga mos keladigan kitobni tanlay olishi kerak. Shu o‘rinda kitoblar saviyasi va albatta, mualliflar masalasiga ham to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bugun axborotlar oqimi nihoyatda katta, cheksiz. O‘quvchi shu axborotlar orasidan eng saralarini, o‘ziga ma’qulini, muhimini tanlab, saralab olib o‘qishi kerak. Buning uchun eng yaxshi asarlar yuzasidan xolis ilmiy munozaralar, amaliy mashg‘ulotlar olib borilishi maqsadga muvofiq. Yaxshi kitoblarning televidenie, OAVdagi targ‘ibot va taqdimotlari ham ayniqsa, katta samara beradi.

XULOSA

Kitob tafakkur qanotidir, degan edi alloma adibimiz Oybek. Biz bugun yangi davrga qadam qo‘ydik. Dunyo yana ilmga, tafakkur — intellektga intilmoqda. Zero, insoniyat uchun faqat va faqat tafakkurgina najot bo‘la oladi. Chindan ham ulug‘ va mo‘’tabar kitoblar insoniylik, halollik, shafqat va imon urug‘larini qalbimizga ekadi. Bizni olamshumul kashfiyotlar, buyuk bunyodkorliklar sari da’vat etadi. Mushkul onlarimizda bizga hammaslak va do‘st bo‘lib to‘g‘ri va oqil yo‘lni ko‘rsatadi. Shu boisdan hayotimizda “o‘qimishli inson” degan ibora boshqacha jaranglaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Osiyo Qosimova; Umumiy kutubxonashunoslik: O‘zR Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.: “O‘qituvchi”, 1994.350 b.
2. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachi I lgi tarix:.-l -qism Darslik / -1 oshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004,-106 b.
3. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / - Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.
4. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish.-T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.-B.3-68.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA RAMZIY OBRAZLAR VA MILLIY XOTIRA POETIKASI

Murodillayev Nurali,
Xalqaro innovatsion universitet, O'zbek filologiyasi va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi

SYMBOLIC IMAGERY AND THE POETICS OF NATIONAL MEMORY IN RAUF PARFI'S POETRY

Murodillayev Nurali,
Teacher of the Department of Uzbek Philology and journalism, International innovation university

СИМВОЛИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ И ПОЭТИКА НАЦИОНАЛЬНОЙ ПАМЯТИ В ПОЭЗИИ РАУФА ПАРФИ

Муродиллаев Нурали,
Преподаватель кафедры узбекской филологии и журналистики Международного инновационного университета

E-mail: nuralimurodillayev66@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0006-9515-4089
Doi: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.18309868***

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Rauf Parfi she'riyatida ramziy obrazlarning badiiy-falsafiy mohiyati hamda ular orqali ifodalangan milliy xotira poetikasi tahlil qilinadi. Shoirning modernistik tafakkuri, tarixiy haqiqatni bevosita tasvirlashdan ko'ra uni ramziy-falsafiy kontekstda anglashga intilishi ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi.*
Kalit so'zlar: *milliy xotira, poetik tafakkur, modern she'riyat, ramziylik, badiiy timsol, tarixiy xotira, Turkiston.*

Аннотация. *This article analyzes the artistic and philosophical essence of symbolic imagery in Rauf Parfi's poetry and the poetics of national memory expressed through these symbols. The study examines the poet's modernist worldview and his tendency to interpret historical reality not through direct depiction but within a symbolic–philosophical context.*
Ключевые слова: *national memory, poetic thinking, modern poetry, symbolism, artistic image, historical memory, Turkestan.*

Annotation. *В данной статье анализируется художественно-философская сущность символических образов в поэзии Рауфа Парфи и поэтика национальной памяти, выраженная через эти символы. Освещается модернистское мировоззрение поэта и его стремление осмыслить историческую реальность не посредством прямого изображения, а в символико-философском контексте.*
Keywords. *национальная память, поэтическое мышление, современная поэзия, символизм, художественный образ, историческая память, Туркестан.*

KIRISH

O'zbek modern she'riyati XX asrning ikkinchi yarmida tub badiiy izlanishlar va poetik tafakkurning yangi bosqichini boshdan kechirdi. Ana shu jarayonda Rauf Parfi ijodi o'ziga xos estetik fenomen sifatida namoyon bo'lib, milliy adabiy tafakkurning

yangilanishida beqiyos o‘rin tutdi. Shoirning poetik izlanishlari, ayniqsa, ramziylik (simvolizm), ichki monolog, ruhiy kechinmalarni falsafiy qatlam orqali talqin qilish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Rauf Parfi o‘zbek she’riyatiga nafaqat yangi obrazlar tizimini, balki o‘ziga xos badiiy dunyoqarash – milliy xotira, tarixiy ong va ma’naviy uyg‘onish g‘oyalariga tayangan poetik makonni olib kirdi.

Shoir asarlarida milliy o‘zlikni anglash, xalqning tarixiy taqdiri, ozodlikka intilish, ruhiy iztirob va ma’naviy uyg‘onish kabi mazmunlar ramziy obrazlar vositasida badiiy umumlashma darajasiga ko‘tarilgan. Rauf Parfi ramziy obrazni nafaqat estetik kategoriya, balki tarixiy xotirani jonlantiruvchi poetik vosita sifatida qo‘llaydi. Shu bois uning she’riy olamida shamol, quyosh, tun, tong, jilva, sukunat, ruh, iztirob kabi ko‘plab timsollar metafizik ma’no kasb etadi va milliy ma’naviyatning chuqur qatlamlari bilan bog‘lanadi.

Shoirning “Ona Turkiston” kitobiga kiritilgan she’rlarida bu jihatlar yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur to‘plam Rauf Parfining Turkiston fojiaviy taqdirini badiiy-falsafiy mushohada orqali yoritishga intilganini ko‘rsatadi. She’rlarda mustamlaka davri zulmi, jadidlar merosi taqdiri, tarixiy xotiraning buzilishi, milliy uyg‘onish orzusi singari motivlar modernistik poetika bilan uyg‘unlashib, ramziy obrazlar tizimi orqali yanada ta’sirchanlik kasb etadi. Shoir tarixiy jarayonlarni bevosita tasvirlashdan voz kechib, ularni ramziy-falsafiy kontekstda talqin etadi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek modern she’riyatida tarix xotirasini badiiy ifodalashning yangi shaklini yuzaga keltirdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mazkur tadqiqotda Rauf Parfi she’riyatidagi ramziy obrazlar tizimini ilmiy asosda tahlil qilish uchun bir nechta zamonaviy filologik metodlardan foydalanildi. Har bir metod shoir poetikasini turli rakursdan yoritish, asarlarning ichki semantik qatlamlarini aniq belgilash hamda ramziy mazmunni kengroq anglashga xizmat qiladi.

Poetik tahlil metodi. Ushbu metod she’riy matnning badiiy tabiati, uning poetik konstruksiyasi, obrazlar tizimi, ritmik-intonatsion qurilishi, leksik-semantik qatlamlari va ramziylik darajasini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Tadqiqotda shoir poetikasidagi “fojiaviy ohang”, “iztirob estetikasining” badiiy ifodalanish mexanizmlari aniqlanib, ular matnni mazmuniy boshqaruvchi unsurlar sifatida baholandi.

Tarixiy-adabiy yondashuv. Rauf Parfi ijodidagi ramzlarning to‘laqonli talqini uchun she’rlarda aks etgan tarixiy kontekstni yoritish zarur. Shu maqsadda XX asr

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

boshidagi Turkiston muxtoriyati, mustamlakachilik siyosati, jadidchilik harakati, 1930-yillardagi qatag‘onlar, sovet mafkurasining milliy xotiraga ta’siri kabi tarixiy hodisalar bilan bog‘liq ma’lumotlar tahlilga jalb qilindi. She’rlarda uchraydigan “dor”, “simlar”, “zich havo” singari obrazlarning zamirida aynan tarixiy jarayonlar – ozodlik harakatining fojiaviy yakuni, jadidlar taqdiri, mustamlaka zo‘ravonligining izi yotganligi tarixiy-adabiy yondashuv asosida izohlandi. Bu metod shoir she’riyati va tarixiy xotira o‘rtasidagi organik bog‘liqlikni ochib berdi.

Psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi mudiri, dotsent

OPPORTUNITIES FOR ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF YOUNG TEACHERS AND PREPARING THEM FOR INNOVATIVE PEDAGOGICAL ACTIVITY

Shonazarov Jamol Umirzoqovich,
Associate Professor,
Head of the Department of Psychology and Physical Education International Innovative University

ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА МОЛОДЫХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ И ИХ ПОДГОТОВКИ К ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Шоназаров Джамол Умирзакович,
заведующий кафедрой психологии и физической культуры, доцент
Международный инновационный университет

E-mail: jshonazarov1331@gmail.com
Orcid: 0009-0003-3812-3997
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.18310150

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘qituvchi faoliyatiga qo‘yilgan zamonaviy talablar, bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o‘ziga xos pedagogik, psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatida o‘quv jarayonini tashkil etishga psixologik - texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorlik ko‘rishda innovatsion yondashuvga asoslanishning ustuvor masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik jarayon, pedagogik faoliyat, innovatsiya, innovatsion faoliyat, pedagogik mahorat, kreativlik, ijodiy yondashuv, pedagogik texnologiya, innovatsion ta’lim, innovatsion infratuzilma, innovatsion yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются современные требования к деятельности учителя, специфические педагогические и психологические особенности процесса подготовки будущих учителей к инновационной профессиональной деятельности.*

Также в ней обозначены приоритетные вопросы обоснования инновационного подхода на основе психологической, технологической, методической и творческой готовности учителей к организации образовательного процесса.

Ключевые слова: *педагогический процесс, педагогическая деятельность, инновации, инновационная деятельность, педагогические навыки, креативность, творческий подход, педагогические технологии, инновационное образование, инновационная инфраструктура, инновационный подход.*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Annotation. *This article discusses the modern requirements for teacher activity, the specific pedagogical and psychological characteristics of the process of preparing future teachers for innovative professional activity.*

It also outlines the priority issues of basing an innovative approach on the psychological, technological, methodological and creative readiness of teachers to organize the educational process.

Keywords. *pedagogical process, pedagogical activity, innovation, innovative activity, pedagogical skills, creativity, creative approach, pedagogical technology, innovative education, innovative infrastructure, innovative approach.*

KIRISH

Yosh avlodni zamonaviy dunyo talablari darajasida o‘qitish hamda tarbiyalash ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchilar amalga oshiradilar. Zamonaviy o‘qituvchiga kasbiga mos, ya’ni sog‘lom avlod uchun haqiqiy murabbiy bo‘lish ishtiyoqi zo‘r, zamon talablarini tez hamda chuqur tushunadigan, o‘zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasi, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi insonlargina bo‘lishi zarur.

Zamonaviy o‘qituvchining asosiy maqsadi yosh avlodni ma‘naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy – tarixiy an’analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir. O‘qituvchi yosh avlodni har tomonlama kamolga yetkazishda pedagogik jarayonda foliyatning individual uslubi kabi yig‘ma ko‘rsatkichlar, jumladan individual faoliyat uslubidan ham foydalanadilar. Bugungi kunda ta’lim sohasida yangi ilmiy yo‘nalish - ta’limiy innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida ta’limiy faoliyatda ham yangi yo‘nalish “innovatsion faoliyat” tushunchasi paydo bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda ta’limdagi innovatsion harakatlarning xususiyatini o‘rganmagan, ta’lim sohasidagi innovatsion faoliyatning mohiyatini tushunmaydigan, innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng egallamagan o‘qituvchini zamonaviy pedagog, raqobatbardosh kadr, yetuk mutaxassis deb hisoblab bo‘lmaydi. Innovatsion faoliyat - pedagogning o‘z kasbini mukammallashtirish va uni takomillashtirishdagi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashida ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion ta’limiy faoliyat mukammal tarkib topmagan shu bilan birga aniq bir to‘xtamli bo‘lmagan ilmiy faoliyat ekanligini e’tirof etish lozim [1]. Buning asosiy sabablaridan biri ta’limiy bilim va amaliy ta’limiy faoliyat o‘rtasidagi uzilishdir. Pedagog innovatsion faoliyatning subekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, uni faoliyatda qo‘llay olish hamda targ‘ibot etishda ishtirok etar ekan, faoliyatning samaradorligi va natijadorlikni anglamog‘i,

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Pedagogik jarayonda zamonaviy o'qituvchi faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, innovatsiya va o'qituvchining faoliyati bir-biri bilan uyg'unlashib, pedagogik jarayonda ijodkorlikka asoslanadi va kasbiy mahoratga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu boisdan innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon, ijodkorlik, kreativlik kabi tushunchalar bilan chambarchas boq'liq. Shuning uchun bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi o'quv-tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik sifatida innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda.

"Innovatsion ta'lim" deganda, odatda, o'quv-tarbiya jarayoniga foydali, samarali yangiliklar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya - o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining maqsadi, mazmuni, metodologiyasi, tashkil etish shakli, boshqaruv tizimiga, pedagogik faoliyatda o'quv-bilish jarayonini tashkil etish, ta'limni nazorat qilish va baholash tizimiga, uning o'quv-metodik ta'minoti, tarbiyaviy ishlar tizimiga hamda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bevosita bog'liq [2]. Mana shunday ta'lim islohotlari jarayonida pedagogning innovatsion faoliyati xususida bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda rivojlanib borayotgan innovatsion siyosat ta'lim oldiga muhim va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Ana shu maqsadlar asosida ta'lim sohasi bo'yicha mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakat boshlandi.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda mamlakatimizda yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, o‘sha vaqtda ishlab chiqilgan innovatsion ta’lim texnologiyalari: dialektik o‘qitish usullari (A.I.Goncharuk, V.L.Zarina), o‘qitishning individual yo‘nalishli usuli (A.A.Yarulov), “Ekologiya va dialektika” (L.V.Tarasov), evristik o‘qitish (A.V.Xutorskoy) dialog madaniyati (V.S.Bibler, S.Y.Kurganov), loyihali, o‘z-o‘zini refleksiya (G.P.Shedrovitskaya) va boshqalarni keltirish mumkin.

Mazkur texnologiyalar o‘qitishda o‘zlashtirishni yuqori ko‘tarish, o‘quv jarayonida qiziqtirishni, o‘quv materialini tushunishni yaxshilashni, funksional va loyihali savodxonlikni shakllantirish, nazariy, ekologik va iqtisodiy tafakkurni o‘stirish, kommunikativlik, ijtimoiy faollikni oshirish, o‘z-o‘zini anglashga o‘rgatib borish va boshqa vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan edi. Bugungi kunda barcha faoliyat sohalari, jumladan, qishloq xo‘lagi, texnika, ishlab chiqarish rivojlanishning innovatsion yo‘liga o‘tgach, ta’lim sohasi ularga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash funksiyasini bajarishi uchun ham pedagogik jarayonda innovatsion yondashishni talab etmoqda.

NATIJALAR.

Innovatsion faoliyat - maksimal maqsadli natija olishga qaratilgan, ta’limiy jamoani harakatga keltiruvchi kuchdir. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo‘lib, faoliyatni loyihalaydi, yangicha yo‘nalishlarni, yangi texnologiyalarni yaratib, faoliyatga qo‘llab yangi sifat natijalariga erishishni ko‘zlaydi. Innovatsion ta’limiy faoliyatda qo‘llanadigan har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Qachonki ma’lum yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi aynan tizimni rivojlantirishga va takomillashtirishga yoki uning o‘zgarishiga, olib kelsagina, uni innovatsiya deyish mumkin.

Innovatsion faoliyat ta’limiy jarayondagi har qanday vaziyatdagi muammolarni hal etish uchun qulay jarayon bo‘libgina qolmay, sifat samaradorlikni yaxshilashga qaratilgan pedagogning harakat tizimi hisoblanadi. O‘z navbatida bu tizim amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib jamiyatning barcha jabhalari uchun zamonaviy va ijodkor, salohiyatli mutaxassislar tayyorlashni ta’minlaydi [3]. Amaliyot va nazariyada innovatsion ta’limiy faoliyatining bosh masalasi esa pedagogning ta’limiy jarayonni samarali va natijadorli tashkil eta olishidan iboratdir.

Innovatsion faoliyat - uzoq vaqt davomida uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash evaziga shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyatning harakatga keltiruvchi pedagog jarayonni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan o‘rinli foydalana bilmog‘i lozim. Pedagogik texnologiya ta’lim berishda qo‘llaniladigan interfaol usullar va vositalar, rejalashtirilgan ta’lim natijalariga

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

erishish uchun maqsadlar majmuasidir. Pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek pedagog faoliyatiga kreativ yondashish va o‘zgartirishi orqali ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar bevosita amalga oshiriladi. Pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorligi innovatsion jarayonlar dinamikasining o‘sib borishiga sabab bo‘ladi.

MUNOZARA.

Ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarga asoslangan innovatsion faoliyat o‘quv-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishda muhim omil bo‘lsada ayni paytda innovatsion faoliyat bo‘yicha bir qator kamchiliklar mavjudligini qayd etish joiz. Birinchidan, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mas’ul vazirlik va idoralar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik lozim darajada emas, ilmiy-tadqiqot muassasalar va laboratoriyalar faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmaganligi; ikkinchidan, ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish past darajada ekanligi; uchinchidan, innovatsion menejment sohasida texnologiyalar transferini faol ilgari surish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligi; to‘rtinchidan, ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirish samarali va shaffof emas, budjetdan tashqari va xususiy jamg‘armalar mablag‘larini jalb etishni rag‘batlantirish mexanizmlari mavjud emasligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish borasida Respublikada innovatsion faoliyatni rivojlantirish va rag‘batlantirishning huquqiy meyoriy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (24.07.2020 y., O‘RQ-630), 2019 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi (21.09.2018 y. PF-5544-son), O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (29.10.2019 y., N O‘RQ-576) kabi huquqiy meyoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi mamlakatimizda innovatsion infratuzilma, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyatning takaomillashuvi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuni alohida takidlash lozimki, yurtimizda innovatsion jarayonlarni rivojlanishi natijasida innovatsion infratuzilmaga ehtiyoj sezildi. Innovatsion infratuzilma - innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta’minlaydigan tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi birlashmalarining majmuidir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalar kabi ta’lim sohasida ham innovatsion infratuzilma shakllantirildi. Mazkur infratuzilmani shakllanganligini bevosita ta’lim turlaridagi o‘zgarishlarda ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘zgarishlar esa o‘z navbatida pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat bo‘yicha ko‘nikma,

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

malakalarining o‘zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishiga xizmat qiladi hamda innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, o‘zgarishlar, moslashtirishlar ta’lim jarayoniga kirib keladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, pedagogning innovatsion faoliyati ko‘plab yangi g‘oyalarning, innovatsion loyihalarning ishlab chiqilishi va yaratilishini ta’minlaydi, shuningdek, ushbu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradi. Innovatsiyalarni loyihalash jarayoni pedagoglarning innovatsiyalarni amalga oshirishga bo‘lgan tanqidiy va ijodiy fikrlashlariga bo‘lgan ehtiyojni belgilaydi. Demak, innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy meyorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan meyorining yuzaga kelgan meyor bilan to‘qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga yo‘naltirilgan faoliyat sanaladi. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy - texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta’lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi [4]. O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi hamda u ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu bois har bir o‘qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta’lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimining rivojini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
2. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullayeva Q.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo‘llanma. –T., 2014.
3. Tolipov O‘.Q.,M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari T. “Fan” nashriyoti, 2006 yil.
4. Shonazarov J.U. O‘quv mashg‘ulotlarida pedagogning innovatsion faoliyati va kreativ yondoshuvi. “Sanoat va qishloq xo‘jalik tarmoqlarida ekologiya va mehnat muhofazasi muammolari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Buxoro- 2023 yil 19-20 oktabr, 255-258 betlar.

VOLUME:1 ISSUE:4

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

O‘QUVCHILARNING O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Razzakova Muqaddas,
Pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi

THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS’ READING COMPREHENSION SKILLS

Razzakova Muqaddas,
Department of Language Teaching Methodology
Pedagogical Excellence Center
Republic of Karakalpakstan

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА У ОБУЧАЮЩИХСЯ

Раззакова Мукаддас,
Кафедра методики преподавания языков
Центр педагогического мастерства
Республика Каракалпакстан

E-mail: razzakovamuqaddas.@gmail.com
Orcid: 0009-0004-4332-8951
Doi: *https://doi.org/10.5281/zenodo.18310218*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni, ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarning o‘qib tushunish jarayoniga ta’siri yoritiladi.*
Kalit so‘zlar: *o‘qib tushunish, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, innovatsion ta’lim, kompetensiya, AKT.*

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически и практически анализируется роль современных педагогических технологий в развитии навыков чтения учащихся, их значение в повышении эффективности образования. Также освещается влияние интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и инновационных подходов на процесс чтения и понимания.*
Ключевые слова: *понимание прочитанного, педагогическая технология, интерактивные методы, инновационное образование, компетенция, ИКТ.*

Annotation. *In this article, the role of modern pedagogical technologies in the development of students' reading comprehension skills and their importance in increasing the effectiveness of education are analyzed from a scientific-theoretical and practical point of view. The influence of interactive methods, information and communication technologies, and innovative approaches on the process of reading comprehension is also highlighted.*
Keywords. *reading comprehension, pedagogical technology, interactive methods, innovative education, competence, ICT.*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. O‘qib tushunish ko‘nikmasi shaxsning intellektual rivoji, bilimlarni egallashi va hayotiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘qib tushunish ko‘nikmasi va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati O‘qib tushunish – bu matnni mexanik o‘qish emas, balki uning mazmunini anglash, muallif g‘oyasini idrok etish, xulosalar chiqarish va o‘z munosabatini bildirish jarayonidir. Ushbu ko‘nikma o‘quvchilarda bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, mantiqiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va natijadorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan innovatsion metod va vositalar majmuidir. Ular o‘quvchi shaxsini markazga qo‘ygan holda, uning faolligi va mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi pedagogika va metodika fanlarida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalarning tadqiqotlarida badiiy va ilmiy matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi hamda tahliliy fikrlashi rivojlanishi asoslab berilgan. Q.Yo‘ldoshevning ilmiy ishlarida esa adabiyot va til ta’limida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchi faolligini oshirishi ta’kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qib tushunish jarayonini samarali tashkil etishning muhim omili sifatida e’tirof etiladi. Mazkur ilmiy manbalar ushbu tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish va amaliy topshiriqlarni ishlab chiqish metodlaridan foydalanildi. O‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi matn asosidagi topshiriqlar orqali tahlil qilindi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning fikrlash faolligi va matnni anglash darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar qo‘llanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

O‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan texnologiyalar. Ta’lim jarayonida quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi:

– interfaol metodlar (klaster, insert, aqliy hujum, konseptual jadval);

– muammoli ta’lim texnologiyasi;

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (elektron darsliklar, multimediya vositalari);

– loyihaviy ta’lim;

– tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi.

Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning matn bilan ishlash malakalarini oshirib, ularni mustaqil tahlil va xulosa chiqarishga undaydi.

Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘qib tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, matn ustida INSERT usulidan foydalanish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirsa, klaster metodi asosiy g‘oyalarni tizimlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari o’quvchilarning o’qib tushunish savodxonligini oshirishda matnlar ustida ishlash ham katta samara beradi. Biz ushbu naqolada o’qib tushunishga doir ko’nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bir nechta o’quv topshiqriqlarini berishga harakat qildik. “Davlat tili” matni orqali o’qib tushunishga doir topshiriqlarni ko’rib chiqamiz.

1. Matn. *Til – millatning eng muhim belgisidir. U nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixini, madaniyatini, dunyoqarashini, ruhiyatini va tafakkurini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. Shu jihatdan, o‘zbek tili xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy ma’naviy merosini, milliy o‘zligini va mustaqil davlatchilik tafakkurini ifodalovchi muhim omil hisoblanadi.*

Har yili 21-oktabr kuni mamlakatimizda o‘zbek tili bayrami nishonlanadi. 1989-yilning 21-oktabrida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi milliy o‘zligimizni tiklash yo‘lida tarixiy burilish yasagan hodisa bo‘ldi. Bu kun xalqimizning milliy iftixori, ma’naviy uyg‘onishi va mustaqil tafakkurining ramziga aylandi.

O‘zbek tili ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan boy va qadimiy til hisoblanadi. Uning ildizlari qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarigacha borib taqaladi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Furqat kabi allomalarning asarlari o‘zbek tilining qudratini, so‘z boyligini, ifoda imkoniyatini namoyon etgan bebaho manbalardir.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Xususan, Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘zbek tilining imkoniyatlari va badiiy salohiyatini ilmiy asosda isbotlab, unga milliy maqom bergan. U “turk tili”ni faqat millatning tili emas, balki tafakkur va adabiyot tili sifatida e’tirof ettirgan. Shu tariqa, o‘zbek tili ilm, adabiyot, falsafa va siyosiy fikr ifodachisiga aylangan.

Tilning davlat maqomiga ega bo‘lishi har bir millat hayotida beqiyos tarixiy ahamiyatga ega. Chunki davlat tili - bu millat suverenitetining, o‘zligini anglashining, siyosiy mustaqilligining ifodasidir.

1989-yilda o‘zbek tilining davlat tili sifatida e’tirof etilishi xalqimizning asrlar davomida orzu qilgan ma’naviy ozodligiga eshik ochdi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida quyidagicha mustahkamlab qo‘yilgan: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”. Bu norma davlat suvereniteti va milliy birlikning huquqiy kafolatidir. Davlat tilining maqomini ta’minlash borasidagi islohotlar mamlakatimizda izchil davom etmoqda. So‘nggi yillarda o‘zbek tilining nufuzi va qo‘llanish doirasini kengaytirish yo‘lida davlat miqyosida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish va soha doirasini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlar milliy til siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda:

barcha davlat idoralarida hujjatlar o‘zbek tilida yuritilmoqda;

ilm-fan, texnologiya, axborot sohalarida o‘zbek tilida ilmiy terminologiya rivojlanmoqda;

elektron hukumat tizimida o‘zbek tili asosiy platforma tiliga aylanmoqda;

xorijiy mamlakatlarda o‘zbek tili markazlari va kurslari tashkil etilmoqda.

Bu chora-tadbirlar o‘zbek tilini zamonaviy kommunikatsiya, texnologiya va ta’lim jarayonlariga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Ta’lim tizimi – davlat tilini rivojlantirishning eng muhim tayanchi. Maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda o‘zbek tilini chuqur o‘rgatish, yoshlar ongida ona tiliga hurmatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Bugungi kunda o‘zbek tili nafaqat filologiya sohasida, balki huquq, iqtisod, tibbiyot, texnika, axborot texnologiyalari kabi yo‘nalishlarda ham o‘quv, ilmiy, amaliy til sifatida faol qo‘llanmoqda. Bu esa o‘zbek tilining universal imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Yosh avlod o‘z ona tilida so‘zlab, o‘qib, yozib, ilm o‘rganayotgan ekan, bu millatning mustaqil tafakkuri asrab qolinganidan dalolatdir.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Til – nafaqat aloqa vositasi, balki ma’naviyatni tarbiyalovchi qudratli omildir. Unda xalqning e’tiqodi, axloqi, adabiyati, urf-odatlari mujassam.

O‘zbek tili o‘z tabiatiga ko‘ra yumshoqlik, samimiyat va hikmatni ifoda etadi. Bu tilda “or-nomus”, “sadoqat”, “vijdon”, “mehr-shafqat”, “ilm”, “odamgarchilik” kabi so‘zlar mavjud, ular xalqimizning ruhiy olamidan joy olgan qadimiy tushunchalardir.

Ona tilini ardoqlash – bu ma’naviy poklikka intilishdir. Kim o‘z tiliga hurmat bilan qarasa, u o‘z millatiga sadoqat bilan xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida milliy tillarning saqlanishi va rivojlanishi dolzarb masalaga aylandi. Dunyo tillari orasida o‘z o‘rnini yo‘qotmay, aksincha, zamon talablari asosida rivojlanayotgan o‘zbek tili – xalqimizning madaniy qudratini ifodalaydi.

Axborot texnologiyalari, internet, sun’iy intellekt sohalarida o‘zbek tilining dasturiy ta’minotini yaratish, elektron lug‘atlar, tarjima tizimlari va til korpuslarini kengaytirish tilning zamonaviy rivojlanish bosqichini belgilab bermoqda. Bu borada yosh dasturchilar, lingvistlar, filologlar, tarjimonlar faol ishtirok etayotgani quvonarlidir.

O‘zbek tili – milliy o‘zlik, ma’naviy meros va mustaqil tafakkurning yuksak timsolidir. Uni rivojlantirish, avloddan avlodga yetkazish – har bir fuqarodan mehr, e’tibor va mas’uliyat talab etadi.

Bugun o‘zbek tili davlat, xalqaro muloqot va ilmiy ijod tili sifatida mustahkam o‘rnashmoqda. U nafaqat milliy qadriyat, balki davlat siyosatining strategik ustunlaridan biridir. Shu bois o‘zbek tili bayrami nafaqat til bayrami, balki milliy g‘urur, vatanparvarlik, tarixiy xotira va istiqlol tafakkurining bayramidir.

1-topshiriq. Moslashtirish. Quyidagi tushunchalarni ularning izohi bilan moslashtiring.

A	B
1. Davlat tili	a) Xalqning ruhiy dunyosini aks ettiruvchi vosita
2. Globallashuv	b) Milliy mustaqillikning huquqiy belgisi
3. Ona tili	c) Dunyo miqyosida integratsiya jarayoni

2-topshiriq. Xulosa chiqarish. Quyidagi fikrni davom ettiring:
“Yosh avlod ona tilida ilm olayotgan ekan, bu …” (3-4 gap)

3-topshiriq. Muallif pozitsiyasini aniqlash. Muallifning asosiy g‘oyasini aniqlang va **nega shunday deb o‘ylaganingizni** asoslang. (5–6 gap)

4-topshiriq. Munosabat bildirish. Quyidagi savolga o‘z fikringizni yozing:
“Bugungi raqamli davrda o‘zbek tilini rivojlantirish uchun yana qanday choralar zarur?” (80–100 so‘z)

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning faolligi, mustaqilligi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2018.
2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o`qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. 192 bet.
3. Yo‘ldoshev Q. Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. 462 bet.

VOLUME:1 ISSUE:4

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

UMUM TA`LIM MAKTABLARIDA KO‘PBURCHAKLAR VA ULARNING XOSSALARINI O‘QITISH METODIKASI

Shodiyeva Guliston Temirovna,
Xalqaro innovatsion universiteti Pedagogika kafedrasi o`qituvchisi

METHODOLOGY OF TEACHING POLYGONS AND THEIR PROPERTIES IN GENERAL SCHOOLS

Shodiyeva Guliston Temirovna,
Lecturer, Department of Pedagogy,
International Innovation University

МЕТОДОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ МНОГОУГОЛЬНИКАМ И ИХ СВОЙСТВАМ В ОБЩЕСТВЕННЫХ ШКОЛАХ

Шодиева Гулистон Темировна,
преподаватель кафедры педагогики
Международного инновационного университета

E-mail: gulistonshodiyeva@gmail.com
Orcid: 0009-0004-4332-8951
Doi:
https://doi.org/10.5281/zenodo.18310242

Annotatsiya. *Ushbu maqolada uchburchak va to‘rtburchaklarning xossalarini o‘qitish, “AHA! MATEMATIKA” darsligida uchburchak va to‘rtburchaklarning perimetri va yuzini topish mavzularini o‘qitish, uchburchak va to‘rtburchaklarning perimetri va yuzini topish mavzularini o‘qitishda samarali metodlar tanlash, uchburchak va to‘rtburchaklarning perimetri va yuzini topish mavzularini o‘qitishda samarali bo‘lishi uchun qo‘llanadigan qanday metod va vositalarni haqidagi masalalar qamrab olgan.*

Kalit so‘zlar: *Uchburchak, to‘rtburchak, “AHA! MATEMATIKA” darsligi, uchburchak va to‘rtburchaklarning perimetri, yuzini toppish, uchburchak va to‘rtburchaklarning perimetri va yuzini topish mavzulari, o‘qitish, metodlar, vositalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы преподавания свойств треугольников и прямоугольников, обучения теме нахождения периметра и площади треугольников и прямоугольников в учебнике “AHA! MATHEMATICS”, выбора эффективных методов обучения теме нахождения периметра и площади треугольников и прямоугольников, а также того, какие методы и инструменты могут быть использованы для эффективного обучения теме нахождения периметра и площади треугольников и прямоугольников.*

Ключевые слова: *Треугольник, прямоугольник, учебник “AHA! MATHEMATICS”, нахождение периметра и площади треугольников и прямоугольников, темы нахождения периметра и площади треугольников и прямоугольников, обучение, методы, инструменты.*

Annotation. *This article covers the issues of teaching the properties of triangles and rectangles, teaching the topics of finding the perimeter and area of triangles and rectangles in the “AHA! MATHEMATICS” textbook, choosing effective methods for teaching the topics of finding the perimeter and area of triangles and rectangles, and what methods and tools can be used to be effective in teaching the topics of finding the perimeter and area of triangles and rectangles.*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Keywords. *Triangle, rectangle, "AHA! MATHEMATICS" textbook, finding the perimeter and area of triangles and rectangles, topics of finding the perimeter and area of triangles and rectangles, teaching, methods, tools.*

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ko‘pburchaklar va ularning xossalarini o‘qitish metodikasi o‘quvchilarga geometriya asoslarini o‘rgatishda juda muhim mavzulardan biridir. Ko‘pburchaklar (poligonlar) tushunchasini o‘rgatish nafaqat matematik bilimlarni rivojlantiradi, balki mantiqiy fikrlash, geometrik shakllar va ularga oid xossalarni tushunishga yordam beradi. Ko‘pburchaklarning xossalarini o‘rganish o‘quvchilarga boshqa geometrik shakllar va formulasini tushunishga ham yordam beradi.

Ko'pburchaklar va ularning xossalarini o'qitish metodikasi umumiy ta'lim maktablarida geometriya darslarida o'rganiladi.

Ko'pburchak deb, ichki tomonlari ketma-ket tutashtirilgan yopiq sindiq chiziqqa aytiladi. Agar sindiq chiziq o'z-o'zi bilan kesishmasa, bunday sindiq chiziq sodda sindiq chiziq deyiladi. Sindiq chiziqning barcha bo'g'imlari uzunliklarining yig'indisi shu sindiq chiziqning uzunligi deyiladi.

Ayrim ko'pburchak xossalari: Ko'pburchakning ichki burchagining tomonini uning ichki va tashqi sohalari orqali ifodalash mumkin. Muntazam kesik piramidaning yon sirti asoslari perimetrlarining yig'indisining yarmi bilan apofemasining ko'paytmasiga teng.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Matematika metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo‘lib, shveytsariyalik pedagog-matematik G. Pestalotsining 1803-yilda yozgan “Sonni ko'rgazmali o‘rganish” asarida bayon qilingan. XVII asming birinchi yarmidan boshlab matematika o‘qitish metodikasiga doir masalalar bilan rus olimlaridan akademik S.E. Gurev (1760-1813), XVII asrning birinchi va ikkinchi yarmidan esa N.1. Lobachevskiy (1792-1856), L.N. Ulyanov (1831-1886). L.N. Tolstoy (1828-1910) va atoqli metodist matematik S.I.Shoxor-Trotskiy (1853-1923), A.N. Ostrogradskiy va boshqalar shug'ullandilar va ular matematika faniga ilmiy nuqtayi nazardan qarab, uning progressiv asoslarini ishlab chiqdilar. Masalan, A.N. Ostrogradskiy “Ong kuzatishdan keyin paydo bo‘ladi, ong real, mavjud olamga asoslangan” deb yozgan edi. Geometriya metodikasidan materiallar (материалы по методике геометрии, 1884-yil, 8-bet.). Keyinchalik matematika o‘qitish metodikasining turli yo‘nalishlari bilan N. A Izvolskiy, Y.M. Bradis, S.E. Lyapin, I.K. Andronov, N. A Gla goleva, I.Ya.Dempman, AN. Barsukov, S.1. Novoselov, A.Ya. Xinchin, N.F. Chetveruxin, A.N. Kolmogorov, A.I. Markushevich, A.I. Fetisov va boshqalar shug'ullandilar. 1970-yildan boshlab maktab matematika kursining mazmuni yangi dastur asosida

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

o‘zgartirildi, natijada uni o‘qitish metodikasi ham ish lab chiqildi. Hozirgi dastur asosida o‘qitilayotgan maktab matematika fanining metodikasi bilan professorlardan Y.M. Kolyagin, R.S. Cherkasov, P.M. Erdniyev, J. Ikramov, N. G'aybullayev, T. To'laganov, A. Abduqodirov va boshqa metodist olimlar shug'ullanganlar va shug'ulanmoqdalar. Matematika o'qitish metodikasi pedagogika universitetlarining III-IV kurslarida o‘tiladi. U o'zining tuzilishi xususiyatiga ko‘ra shartli ravishda uchga bo‘linadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Quyida ko‘pburchaklar va ularning xossalarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha samarali yondashuvlarni ko‘rib chiqamiz:

Mavzuni tanishtirish va asosiy tushunchalar

Ko‘pburchak (poligon) — bu bir yoki bir nechta chiziq segmentlaridan iborat yopiq geometrik figura bo‘lib, har bir chiziq segmenti bir-biriga tutashgan bo‘ladi.

Ko‘pburchaklarni tasniflash oddiy va murakkab ko‘pburchaklar: oddiy ko‘pburchaklar o‘z o‘zini kesmaydi, murakkab ko‘pburchaklarda esa kesishmalar bo‘ladi.

Ko‘pburchaklar xossalarini o‘rganish

Ichki burchaklar yig‘indisi: Ko‘pburchakning ichki burchaklarining yig‘indisini o‘rgatishda, formulani taqdim etish munkin.

Buni o‘quvchilarga tushuntirishda ko‘pburchaklarning tashqi burchaklarini o‘lchash va ularning yig‘indisini topish amaliyotlari orqali ko‘rsatish mumkin.

Vizual va amaliy yondashuvlar

Diagrammalar va tasvirlar yordamida tushuntirish:

Ko‘pburchaklarni chizish: O‘quvchilarga turli ko‘pburchaklar (uchburchak, to‘rtburchak, beshburchak va boshqalar) ni chizish va ularning xossalarini o‘rgatish. Bu, ayniqsa, vizual o‘rgatuvchilar uchun samarali bo‘ladi.

Diagrammalar yordamida: Ko‘pburchaklarning ichki va tashqi burchaklarini tasvirlash. Bunda o‘quvchilar har bir burchakni topib, yig‘indisini hisoblashni mashq qilishadi.

Amaliy misollarni yechish:

Ko‘pburchaklar bilan bog‘liq masalalarni yechish: O‘quvchilarga ko‘pburchakning tomonlari yoki burchaklarini topishga oid masalalarni berish. Masalan, ko‘pburchakning ichki burchaklar yig‘indisini topish yoki diagonallar sonini aniqlash.

Misol: Uchburchakli ko‘pburchakning ichki burchaklar yig‘indisini hisoblash.

Interaktiv va guruhli mashqlar

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Guruhlar bilan ishlash:

O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, ko‘pburchaklar bilan bog‘liq turli masalalarni hal qilishga undash. Har bir guruhga turli ko‘pburchaklar berib, ularning xossalarini topish, diagrammalar chizish va natijalarni taqdim etishni so‘rashingiz mumkin.

Konkurslar va viktorinalar:

Ko‘pburchaklar va ularning xossalari bilan bog‘liq viktorina o‘tkazish. Bu o‘quvchilarga mavzuni yanada qiziqarli va interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Ko‘pburchaklarni o‘rganish uchun o‘yinlar:

Geometrik o‘yinlar, masalan, ko‘pburchaklarni moslashtirish o‘yinlari yoki "ko‘pburchaklar safari" kabi faol o‘yinlar orqali o‘quvchilarga mavzuni qiziqarli tarzda o‘rgatish.

Differensial yondashuv (Individal yondashuv)

O‘quvchilarning bilim darajasi va qobiliyatlariga qarab, mashqlarni murakkablashtirish yoki soddalashtirish. Ko‘pburchaklar mavzusida ba’zi o‘quvchilarga asosiy xossalar va formulalar bilan ishlashni, boshqalarga esa murakkab masalalarni yechishni topshirish.

Tushunchalarni mustahkamlash va qo‘shimcha mashqlar

Mavzuni o‘rganishdan so‘ng, ko‘pburchaklar haqida o‘quvchilarning tushunchalarini tekshirish uchun qayta ko‘rib chiqish mashqlarini tashkil eting. Misollar yordamida o‘quvchilarning bilishini mustahkamlash.

Ko‘pburchaklar bilan bog‘liq ko‘p qirrali masalalarni o‘quvchilarga taklif qilish. Masalan, ko‘pburchakning burchaklari yig‘indisini topish, uning diagonallarini hisoblash yoki ko‘pburchakni tasvirlash.

Natijalarni baholash

Testlar va mashqlar orqali baholash: O‘quvchilarning ko‘pburchaklar mavzusini qanday o‘rganganini tekshirish uchun turli testlar va mashqlarni tashkil etish. Masalan, testlarda ko‘pburchakning tomonlarini, burchaklarini, diagonallarini va xossalarini aniqlashni so‘rashingiz mumkin.

Individual va guruhli baholash: Har bir o‘quvchining tushunishini tekshirish va o‘quvchilarga ularning qobiliyatiga qarab maslahatlar berish.

XULOSA

“AHA! MATEMATIKA” darsligida oddiy kasrlar mavzusini o‘qitishda 5-sinf matematika darsligida keltirilgan natural sonlarni qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish mavzularini o‘qitishdagi yondashuv keltirilgan.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

1. Rasmdagi uchburchaklarning turini aniqlang va jadvalga yozing.



a)

Teng tomonli uchburchak	
Teng yonli uchburchak	
To‘g‘ri burchakli uchburchak	

b)

O‘tkir burchakli uchburchak	
O‘tmas burchakli uchburchak	

2. ABCD kvadrat va EFGH to‘g‘ri to‘rtburchakning qolgan tomonlarini chizing va ularni nomlang.

a)



b)



3. Noma’lum burchakni toping.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

a) WXYZ – to‘g‘ri to‘rtburchak.



$\angle a =$

b) LMNO – kvadrat.



$\angle b =$

c) PQRS – to‘g‘ri to‘rtburchak.



$\angle c =$

d) TUVW – kvadrat.



$\angle d =$

4. Bo‘sh joylarni to‘ldiring.

a) ABCD – romb.



AB = _____ cm ∠ABC = _____

AD = _____ cm ∠ADC = _____

CD = _____ cm ∠BCD = _____

b) EFGH – romb.

EF = _____ cm

EH = _____ cm

FG = _____ cm

∠HEF = _____

∠EHG = _____

∠HGF = _____

Mavzu doirasida ishtirokchilar 4-5 nafardan iborat kichik guruhlarga bo‘lingan holda, har bir guruhga tanlangan mavzu bo‘yicha dars texnologik xaritasi tuzish beriladi:

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

1-guruh: Uchburchakning turlari;

2-guruh: Uchburchakning burchaklari;

3-guruh: Geometrik shakllardagi noma’lum burchakni topish;

4-guruh: Parallelogramm, romb va trapetsiyaning xossalari;

Xulosa qilib aytganda, Ko‘pburchaklar va ularning xossalarini o‘qitish metodikasi o‘quvchilarga geometriya asoslarini tushuntirishda samarali bo‘lishi uchun yuqoridagi metodlarni o‘zaro birlashtirish kerak. Bu yondashuvlar o‘quvchilarga ko‘pburchaklarni nafaqat matematik jihatdan, balki real hayotdagi vaziyatlar va amaliy masalalar yordamida tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. Q. Xaydarov, N.N.Tashtemirova, O‘rta maktabda ma’lumotlar bilan ishlash va kombinatorika elementlarini o‘qitish, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Yangiyul Poligrapf Service”, Toshkent, 2021- yil, 144 bet.
2. S.Alixonov, Matematika o‘qitish metodikasi, o‘quv qo‘llanma, Toshkent, O‘qituvchi, 2011-y.
3. F.X.Saydaliyeva, N.O.Eshpo‘latov, Matematika o‘qitish metodikasidan laboratoriya mashg‘ulotlari, TDPU, 2007- y., 67 b.
4. M. A. Mirzaahmedov, A. A. Rahimqoriyev, Sh. N. Ismailov, M. A. To‘xtaxodjayeva Matematika 6-sinf. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 6-sinfi uchun darslik. –T.: “O‘qituvchi”, 2017- y.
5. Sh. A. Alimov, O. R. Xolmuhamedov, M. A. Mirzaahmedov Algebra. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-sinflari uchun darslik.–T.: “O‘qituvchi”, 2017- y.
6. U. X. Xonqulov, Matematikaning stoxastika yo‘nalishi elementlari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2017 -y.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA ONA TILI DARSLARIDA MURAKKAB XUSUSIYATGA EGA MAVZULARNI O‘QITISH USULLARI

Tojiyeva Iroda Sadatovna,
Xalqaro innovatsion universiteti “Pedagogika” kafedrasi dotsenti

Abduqodirova Sabina Mahmudjon qizi,
Xalqaro innovatsion universiteti Pedagogika kafedrasi o`qituvchisi

E-mail: tojiyevairoda9@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2434-8386
Doi: *https://doi.org/10.5281/zenodo.18310290*

METHODS OF TEACHING COMPLEX TOPICS IN MOTHER LANGUAGE LESSONS IN GENERAL SCHOOLS

Tojiyeva Iroda Sadatovna,
Associate Professor, Department of "Pedagogy", International Innovation University

Abdukodirova Sabina Mahmudjonovna,
Teacher of the Department of Pedagogy, International Innovation University

E-mail: sabinaabdugodirova04@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2434-8386
Doi: *https://doi.org/10.5281/zenodo.18310290*

МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ СЛОЖНЫХ ТЕМ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Тоджиева Ирода Садатовна,
доцент кафедры педагогики Международного инновационного университета

Абдукодирова Сабина Махмуджоновна,
Преподаватель кафедры педагогики, Международный инновационный университет

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta`lim maktablarida ona tili darslarida murakkab xususiyatga ega mavzularni o‘qitish usullari haqida masalalar qamrab olgan.*
Kalit sozlar: *Ona tili, ta’lim, tarbiya, umumta`lim maktablari, murakkab xususiyatga ega mavzular.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы, связанные с методикой преподавания сложных тем на уроках родного языка в средних школах.*
Ключевые слова: *Родной язык, образование, воспитание, средние школы, сложные темы.*

Abstract: *This article covers issues related to teaching methods for complex topics in native language classes in secondary schools.*
Keywords: *Mother tongue, education, upbringing, secondary schools, complex topics.*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Yurtimizning rivojlanishi uchun olib borilayotgan turli sohalardagi keng ko‘lamli ishlar uzluksiz ta’lim tizimini yaratish, shu bilan birga, mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor, jamiyatda o‘z o‘rniga ega shaxsni kamol toptirishda namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan.

Maktabda ona tilining o‘qitilishi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan ana shu prinsipga tayanadi. Ona tili fanining maqsadi – o‘quvchilarda og‘zaki nutq va yozma savodxonlik ko‘nikmasini tarkib toptirishdan iborat. Ona tili darslarida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, o‘z fikrini ravon bayon qilish hamda yozma usullarda to‘g‘ri, xatosiz, o‘rinli ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, o‘zbek tili qonun- qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimiz, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviyatimiz, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma, malakalar quyidagi ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi:

- ✓ fanga doir nazariy bilimlarning qay darajada shakllanganligi;
- ✓ o‘zgalar fikrini, matn mazmunini anglash va so‘zlash malakasi;
- ✓ fikrni yozma shaklda to‘g‘ri va aniq, ravon bayon etish malakasi.

O‘quvchilarda ushbu ko‘rsatkichlar asosida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishi kerak. Fanni o‘qitishning bir qator vazifalari mavjud.

Ular:

- ✓ o‘quvchilarni erkin, ijodiy fikrlashga o‘rgatish;
- ✓ fikrini o‘zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og‘zaki va yozma ifodalay olish;
- ✓ so‘zlardan o‘rinli foydalanish;
- ✓ fanning ahamiyatini singdirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida ona tili fanini o’qitishda o’quvchilar nutqini o’stiruvchi metodlardan foydalanishning ahamiyatini o’rganar ekanmiz, Ona tili o’qitish metodikasi bo’yicha K. Qosimova|, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev (Ona tili o’qitish metodikasi), A. G'ulomov(Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari) va boshqa metodik adabiyotlarda ona tilini egallash, ya’ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risida ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dars jarayonida turli usullardan foydalanish ta’lim oluvchining ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi.O‘quvchilarni ona tili darslarida mustaqil, kreativ fikrlashga o‘rgatish uchun dars jarayoni qiziqarli, turli usullardan foydalangan holda tashkil etilishi zarur. Berilgan darsliklardagi grammatik qoidalarni chuqur egallash maqsadida ijodiy fikrlashni shakllantirish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili darslarini tashkil etishda “Fikrlarning tarmoqlanishi”, “BBB”, “FSMU”, “VENN diagrammasi”, “Charxpalak”, “Tushunchalar tahlili”, “Raqmlar so‘zlaganda”, “Baliq skleti”, ‘Yelpig‘ich”, “Bumerang”, “Zakovat”, “Ha yoki yo‘q”, “Zinama-zina”, “Sinkveyn”, “SWOT” tahlili kabi innovatsion, noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish mumkin bo‘lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o‘qituvchi o‘zi dars beradigan o‘quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘ziga xos yo‘nalishda tashkil etishi, o‘zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o‘xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, bunday o‘yinlar mavzularni o‘quvchilatga oson va tushunarli berishning yo‘llaridan biri hisoblanib, o‘qituvchining yangi-yangi ta’limiy o‘yinlarni darslarida qo‘llashi, hatto o‘zi ham shunday o‘yinlarni o‘ylab topishi mumkin. Zero biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz.

Masalan, “Sintaksis”ni o‘quvchilarga o‘rgatishda, birinchi navbatda, “kesim-gapning markazi” ekanligini bildirishdir. Mavzuni tushuntirishni kesimga xos ***yozdi uxladik, keladilar, tekshiramiz*** kabi so‘zlarni shaxs-sonda tuslab, shaxsga ishora qiluvchi qo‘shimchalarni topishdan boshlash muhim.

Masalan:

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Birlik	Ko‘plik
I shaxs yozdi+m	I shaxs yozdi+k
II shaxs yozdi+ng	II shaxs yozdi+ngiz
III shaxs yozdi	III shaxs yozdi (-lar)

Morfologiya va sintaksis bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro munosabatda bo‘lgan sohalar ekanligini tushuntirish lozim. Gap turlari: darak, so‘roq, buyruq, undov gaplarning bir-biridan farqlanishi, asosan, kesimlarning qanday so‘z turkumi orqali ifodalanishiga bog‘liqligi o‘rgatiladi. Masalan, “Kim birinchi?” o‘yini berilgan topshiriqni tez va to‘g‘ri topish ko‘nikmasini rivojlantirish orqali nazariy ma’lumotni yodda saqlab qolish imkonini beradi.

Topshiriq.

1. Sifatlar tarkibiga ko‘ra qanday sifatlarga bo‘linadi?
2. Sifatlar tuzilishiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?



So‘z birikmasi

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

“So‘z birikmasi” biroz murakkab mavzuligi bilan ajralib turadi.

Ushbu mavzuni ta’lim oluvchilarga o‘rgatishda so‘z birikmalariga berilgan tasniflarni bilish muhim.

Masalan, so‘z birikmalari tobe qismning sintaktik vazifasiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishga ega.

“Uyushiq bo‘laklari” mavzusi haqida gap ketganda, avvalo, so‘roq gaplar yordamida uyushiq bo‘lakli darak hamda undov gaplar hosil qilish, uyushiq egalar, uyushiq hollar, uyushiq to‘ldiruvchilar, uyushiq aniqlovchilarni matn tarkibidan topa olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

1-amaliy mashg‘ulot

“Tushunchalar tahlili” usuli

Bog‘imizdagi daraxtlarning barchasi: olma, nok, behi, shaftolilar gullab yotibdi.

Tushunchalar	Izohi
Uyushiq bo‘lak	olma, nok, behi, shaftolilar
Umumlashtiruvchi so‘z	barchasi
Qaysi bo‘lakning uyushganligi	ega

2-amaliy mashg‘ulot

1. Yulduzchalar markazidan o‘rin olgan hokim so‘zga tobe bo‘lgan uyushiq bo‘laklarni hosil qiling hamda ularni o‘z yulduzchasi qirralariga joylashtiring.

2. Ushbu uyushiq bo‘laklar ishtirokida “Mening yulduzim”mavzusida matn tuzing.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Morfologiya

Morfologiya grammatikaning bir qismi ekanligi barchaga ma’lum. Unda so‘zning shakllari, ularning hosil bo‘lish yo‘llari va guruhlarga ajratilishi o‘rganiladi. Morfologiyani o‘qitishda, birinchi navbatda, so‘zlarning tuzilishi, yasalishi hamda so‘z turkumlariga bo‘linishiga e’tibor qaratiladi.

Nostandart test

Bilimingizni berilgan nostandart test orqali sinab ko‘ring. 4-ustundagi tushunchalar qaysi mavzuga oid ekanligini raqamlar orqali belgilang.

T/r	Mavzu	Javob	Mavzuga oid tushunchalar
1.	Morfologiya.		Hisob so‘z, numerativ
2.	So‘z turkumlari.		O‘timli-o‘timsizlik, sifatdosh
3.	Grammatik kategoriyalar.		O‘zgarmas so‘z, darajalanish
4.	Ot so‘z turkumi.		“Ichi bo‘sh so‘z”, ishora so‘zlar
5.	Sifat so‘z turkumi.		Undov, modal, taqlid
6.	Son so‘z turkumi.		Vosita, atalganlik
7.	Fe’l so‘z turkumi.		Ayiruv, ta’kid
8.	Ravish so‘z turkumi.		Antroponim, zoonim
9.	Olmosh so‘z turkumi.		Zidlov, biriktiruv
10.	Ko‘makchi.		Grammatik shakl, grammatik ma’no
11.	Bog‘lovchi.		O‘zgalovchi kategoriya, nisbat kategoriyasi
12.	Yuklama.		Mustaqil, yordamchi
13.	Alohida so‘zlar turkumi.		Asliy, nisbiy

Fe’l so‘z turkumi

“Fe’l” so‘z turkumini o‘rganishda fe’llardan bo‘lishsiz (va aksincha) fe’llar hosil qilish, ular ishtirokida gaplar qurish, kesim vazifasida kelgan fe’llarning zamonini almashtirib qo‘llash, kesimlarga shaxs-son va zamon qo‘shimchalari qo‘shish ishlari o‘rganilganlarni o‘quvchilar xotirasida tiklash imkoniyatini yaratadi.

6-sinfda fe’llarning lug‘aviy shakllari va ma’no guruhlari o‘rganiladi. “Fe’llarning umumiy xususiyatlari”, “Fe’l nisbatlari”, “Fe’lning vazifa shakllari”, “Fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari”, “Fe’lning ma’noviy guruhlari”, “Ko‘makchi fe’llar”, “Fe’llarning munosabat shakllari”, “Fe’llarning zamon shakllari”, “Mayl

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

shakllari", "Shaxs-son shakllari" singari mavzularni o‘rganishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘z boyligini fe’llar bilan oshirish, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirishga qaratiladi. O‘quvchilarning fe’llarga xos bo‘lgan xususiyatlarni to‘liq o‘zlashtirishlari uchun fe’l- sinonimlar ustida ishlash maqsadga muvofiqdir. Berilgan fe’llarga sinonimlar topish (masalan, chopmoq, yugurmoq, g‘izillamoq, uchmoq), ma’nosi tushunarli bo‘lmagan sinonim so‘zlarning ma’nosini izohlash, har bir so‘z yordamida gaplar tuzish maqsadga muvofiq.

Masalan:

Bobur otasi tomon chopdi.

Qizcha onasiga qarab quchoq ochib yugurdi.

Berilgan matnni tahrir qilishda, takrorlangan fe’llar o‘rniga ularning sinonimlarini qo‘llash singari ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish o‘quvchilaming so‘z boyligini oshirishda o‘ta muhim sanaladi. Mavzuni o‘rganishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘z boyligini fe’llar bilan oshirish, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirishga qaratiladi.O‘quvchilarning fe’llardan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini o‘stirish uchun berilgan qo‘shimchalar yordamida fe’llar hosil qilish, ko‘makchi fe’llar berib, ular ishtirokidagi yetakchi+ko‘makchi fe’llar tuzish, to‘liqsiz fe’llarni shaxslar doirasida o‘zgartirishga oid namunalar topish yuzasidan guruhlarda bellashuvlar tashkil etish mumkin.

“Bor ekanda yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan” o‘yini

Bu o‘yinda sinf ikki guruhga ajratiladi va 1-guruhga to‘liqsiz fe’llarni shaxslar bo‘yicha o‘zgartirish,

2-guruhga esa ularing boshqa so‘zlar bilan birikishiga oid namunalar yozish topshiriladi. Keyin topshiriq turi guruhlararo almashtiriladi. Belgilangan vaqtda topshiriqni to‘g‘ri bajargan guruh ertak aytish huquqini (yoki o‘qituvchidan eshitishni) qo‘lga kiritadi. Chunki o‘yinning nomi shunga muvofiq qo‘yilgan va ertak eshitiladi (imkoniyat darajasida). Shu matndagi to‘liqsiz fe’llar topiladi va izohlanadi.

Ot so‘z turkumi

O‘quvchilar uchun o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan nazariy bilimlardan biri qo‘shma otlar va ularning imlosi sanaladi.

Mavzuni o‘rganishda mavjud so‘z birikmalaridan joy nomlari tuzish, masalan, yetti suv – Yettisuv, yangi bog‘ – Yangibog‘, uch tepa – Uchtepa, qo‘shma so‘zlarni so‘z birikmalariga aylantirish – paxtagul – paxta guli, otbozor – ot bozori, molbozor-mol bozori, berilgan qo‘shma so‘zlar lug‘atini tuzish – gulbeor, Ko‘ksaroy kabi

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

ularning imlosini sharhlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish ushbu mavzuning yaxshi o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

O‘quvchilarning juft otlarni o‘rganishlarida ham anchagina qiyinchilik tug‘diradigan masalalar bor. Ulardan biri juft so‘zlarni ular orasidagi ma’no munosabatlariga ko‘ra uyadosh so‘zlar: aka-uka, aka-uka, ota-ona, ko‘z-quloq kabi ma’nodosh so‘zlar: uy-joy, kuch-quvvat, baxt- saodat, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar: do‘st-dushman, kecha-kunduz singari guruhlarga ajratish, faqat bitta tovushning o‘zgarishi bilan takrorlanadigan bug‘doy-mug‘doy, choy-poy, osh-posh kabi so‘zlarning ma’nosini sharhlash singari topshiriqlardan foydalansa bo‘ladi.

Mavzuni o‘rganishda mavjud so‘z birikmalaridan joy nomlari tuzish	qo‘shma so‘zlarni so‘z birikmalariga aylantirish	berilgan qo‘shma so‘zlar lug‘atini tuzish
yetti suv- Yettisuv yangi bog‘- Yangibog‘ uch tepa- Uchtepa	paxtagul- paxta guli otbozor- ot bozori molbozor- mol bozori	gulbeor Ko‘ksaroy molbozor

Kutiladigan natija shundan iboratki, ta’lim oluvchi ushbu ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish asnosida mavzuni to‘liq o‘zlashtiradi.

Sifat so‘z turkumi

Sifat so‘z turkumini o‘qitishda sifatlarning yasalishiga doir berilgan ma’lumotlarni o‘rganish va sifat yasovchi qo‘shimchalarni bilish o‘quvchi nutqini kengaytiradi. Qo‘shimchalar yordamida sifatlarning yasalishini o‘rganish va uni nutqda qo‘llay olish o‘quvchining chiroyli so‘zlash fazilatlarini rivojlantirib boradi.

chop ertalab ich yoz kuz bahor sez ol	chopqir ertalabki ichki yozgi kuzgi bahorgi sezgir olg‘ir

Sifat so‘z turkumini o‘qitishda sifatlarning yasalishiga doir berilgan ma’lumotlarni o‘rganish va sifat yasovchi qo‘shimchalarni bilish o‘quvchi nutqini kengaytiradi.

Namuna uchun berilgan so‘zlar:

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

chop
ertalab
ich
yoz
kuz
bahor
sez
ol

Shu so‘zlardan hosil qilingan sifatlar:

chopqir
ertalabki
ichki
yozgi
kuzgi
bahorgi
sezgir
olg‘ir

Qo‘shimchalar yordamida bu kabi sifatlarning yasalishini o‘rganish va uni nutqda qo‘llay olish o‘quvchining chiroyli so‘zlash fazilatlarini rivojlantirib boradi.

Leksikologiya

“Leksikologiya” bo‘limini o‘qitish juda katta ta’limiy ahamiyatga ega. Mazkur bo‘limni o‘qitishning muhimligi shundaki, o‘quvchilartilning asosiy birligi - so‘z haqidagi ta’limot bilan tanishishadilar.

O‘quvchilarduch keladigan dastlabki muammo so‘zning **o‘z** va **ko‘chma** ma’nolaridir.

Oltin uzuk **Temir yo‘l** **Yengil eshik**	**Oltin bosh** **Temir intizom** **Yengil ta’zim**

✓ *So‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratish;*

✓ *so‘zlarni o‘zaro qiyoslash asosida so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolariga ta’rif berish;*

✓ *berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llab gaplartuzish;*

✓ *badiiy matnlarni tahiil qilish;*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

✓ *so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llab matn yaratish* singari ijodiy- amaliy ishlaro‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Ta’lim maskanlarida yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur shart-sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Jamiyat ilmiy darajasining yuqoriligi mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o‘z biluv imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning savodxonlik ruhini uyg‘otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi.

O‘quvchilarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida ona tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga oid masalalar bo‘yicha zaruriy bilimlar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq. Nazariy mavzular sifatida ajratilgan nazariy ma’lumotlar yagona uslubiyotga bo‘ysundirilgan tarzda ta’lim oluvchining ham nazariy bilimlarini oshirishga, ham nutqiy savodxonlik bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Har bir xalqning ona tili o‘zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddanavlodgamerosqoladiganasosiyvosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Toshkent – 1995- yil “O‘qituvchi” nashriyoti.
2. Abdurazzoqova D “Interfaol metodlar: nazariya, amaliyot, tajriba” Pedagoglar uchun qo‘llanma. Toshkent – 2013 yil.
3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 456 b.
4. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. (Darslik) – Toshkent: Cho‘lpon, 2013.
5. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxamedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

4-SINF TARBIYA DARSLIGIDAGI “BOBOLARIMIZNING BEBAHO MEROSI ” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USLUBLAR VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Tojiyeva Iroda Sadatovna,
Xalqaro innovatsion universiteti “Pedagogika” kafedrasi dotsenti

Shoimov Anvar Mamarizayevich,
Xalqaro innovatsion universiteti “Pedagogika” kafedrasi dotsenti

E-mail: tojiyevairoda9@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2434-8386
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.18531564

APPLICATION OF INTERACTIVE METHODS AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE TOPIC “THE PRICELESS HERITAGE OF OUR FOREIGNERS” IN THE 4TH GRADE EDUCATION TEXTBOOK

Tojiyeva Iroda Sadatovna,
Associate Professor, Department of "Pedagogy", International Innovation University

Shoimov Anvar Mamarizayevich,
Associate Professor, Department of Pedagogy, International Innovative University

E-mail: shoimovanvar8626@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2434-8386
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.18531564

ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ «БЕСЦЕННОЕ НАСЛЕДИЕ НАШИХ ИНОСТРАНЦЕВ» В УЧЕБНИКЕ ДЛЯ 4-ГО КЛАССА

Тоджиева Ирода Садатовна,
доцент кафедры педагогики Международного инновационного университета

Шоимов Анвар Мамаризаевич,
доцент кафедры «Педагогика» Международного инновационного университета

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 4-sinf tarbiya darsligidagi “Bobolarimizning bebaho merosi” mavzusini o‘tishda interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Bu metodlar maktabda ta’lim bilan birgalikda olib boriladi. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirishda yordam beradi.*
Kalit so‘zlar: *Tarbiya, allomalar, olimlar, Ma’mun, akademiya, o‘quvchi, usul, metod.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация об использовании интерактивных методов и педагогических технологий в учебнике для 4-го класса по теме*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

«Бесценное наследие наших предков». Эти методы используются в сочетании со школьным образованием. Они помогают учащимся развивать знания, навыки и компетенции.

Ключевые слова: *Образование, ученые, исследователи, Мамун, академия, студент, метод, метод*

Abstract: *This article provides information on the use of interactive methods and pedagogical technologies in the 4th grade textbook on the topic "The Priceless Heritage of Our Ancestors". These methods are used in conjunction with school education. They help students develop knowledge, skills, and competencies.*

Keywords*: Education, scholars, scientists, Ma'mun, academy, student, method, method.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy iftixor va ma’naviy merosga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning dunyoqarashi, axloqiy-estetik qarashlari va fuqarolik pozitsiyasi shakllanishida tarbiya fanining o‘rni beqiyosdir.

4-sinf tarbiya darsligidagi “Bobolarimizning bebaho merosi” mavzusi o‘quvchilarni xalqimizning boy tarixi, ma’naviy-ma’rifiy merosi, ulug‘ allomalar, buyuk sarkardalar va ma’rifatparvar ajdodlar hayoti hamda faoliyati bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Ushbu mavzu orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga sadoqat, vatanparvarlik, ajdodlar merosiga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin.

Mazkur mavzuni o‘qitish jarayonida interfaol usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoada ishlash, muloqotga kirishish, o‘z fikrini erkin bayon etish kabi kompetensiyalar aynan interfaol ta’lim orqali samarali shakllanadi.

Shu bois, ushbu maqolada 4-sinf tarbiya darsligidagi “Bobolarimizning bebaho merosi” mavzusini o‘qitishda interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati, imkoniyatlari hamda amaliy jihatlari yoritib beriladi. Maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanma vazifasini o‘tashiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

4-sinf tarbiya darsligidagi “Bobolarimizning bebaho merosi” mavzusini o‘tishda interfaol metodlar**.**

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishning muhim komponentlaridan biri tarbiya vositalari hisoblanadi. O‘z davrida taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy tarbiya vositalarini bolaning hayoti, uning tashqi olam bilan munosabati, hamkorlikdagi ish va muloqotidan iborat deb ta’kidlagan edi. To‘g‘ri tanlangan va pedagog tomonidan qo‘llanadigan metodlar tizimiga kiritilgan vositalar tarbiyalanuvchiga tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Buning oqibatida ular o‘quvchi va talabalar tomonidan tarbiyaviy ta’sirning mohiyatini bevosita anglash va ularning kuzatuvchanligi va ta’sirchanligini kuchaytirib, fikrlash, ya’ni tarbiyachi maqsadini tezroq fahmlashga asos bo‘ladi.

Interfaol metodlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va o‘quvchilarda quyidagi jihatlar alohida rivojlanadi:

7-chizma

1-USUL:“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”

Metodning tavsifi: Hamkorlikdagi ta’limning bir ko‘rinishi-kichik guruhlarga bo‘linganda uning a’zolari 4-6 kishi bo‘lishi maqsadga muvofiq. Guruhda ishtirokchilar sonining ko‘pligi guruh a’zolarining faol ishtiroklarida xalaqit beradi; guruh tarkibini tanlashda albatta guruhdagi “a’lo” o‘zlashtiruvchi, “yaxshi” va “qoniqarli” o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar kiritilishi talab qilinadi. Hech qachon “kuchlilar” va “kuchsizlar” tuzilmasligi lozim; guruh a’zolari guruhning o‘zlashtirishiga qarab, yangilanib turishi lozim.

Metodni tashkil qilish: Bu yondoshuvda kichik guruhlar 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘quvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi,

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

Metodning ahamiyati: Topqirlik, olgan bilimlarini tezda esga olish xususuyati takomillashadi.

Fanlararo integratsiyasi: O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. [3]

2-USUL: “ENG YAXSHI MUXBIR” METODI:

Metodning tavsifi: Bu metoddan asosan darsning tashkiliy qismida foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilar media axborot orqali eshitgan yangiliklarni to‘plab darsning kirish qismida aytib beradilar. O‘qituvchi kimning axboroti serqirra va qiziqarli bo`lsa o‘sha o‘quvchi “eng yaxshi muxbir” nominatsiyasini oladi. Bu belgi har bir darsda qo`llanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Metodni tashkil qilish: O‘quvchilarni baholashda har guruhning to‘g’ri javoblari uchun ballar berib boriladi va u ballar mana shu tarix bankida to‘planadi.Har bir o‘quvchi yakka javob bersa o‘ziga ball,guruh bo‘lib ishlaganda guruhga ball beriladi va dars oxirida har bir o‘quvchi va guruhning ballari hisobllanadi va g’olib o‘quvchi va guruh aniqlanadi.

Metodning ahamiyati: Tashkiliy qism jarayonida har bir darsda dunyo siyosiy yangiliklarini tiklash ham o‘quvchilarni Vatanimiz va dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarni tahlil qilishga undaydi. Bu jarayonda **“ENG YAXSHI MUXBIR”** metodini qo‘llash o‘quvchilarni yanada har darsda yangiliklar topib kelishga undaydi.

Fanlararo integratsiyasi: Bu metodni har bir darsda qo`llanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3-USUL:“AYTCHI MENGA” MASHQI:

Metodning tavsifi: Ushbu mashqni bajarish o‘zlari javob berishni hohlaydigan savolga javob beradilar

Mashqni o‘tkazish tartibi: Bu ish 4 kishidan iborat guruhlarda uch bosqichda o‘tkaziladi:

1. Barcha ishtirokchilarga tarqatuv varag‘i beriladi va bu varaqda aks ettirilgan savollardan biri o‘ng tomondagi qo‘shni ishtirokchiga beriladi. U bir daqiqa davomida berilgan savolga javob beradi. Keyin javob bergan ishtirokchi varaqdagi savollardan birini tanlab, o‘zining o‘ng tomondagi qo‘shnisiga beradi. Va bu jarayon shu tariqa guruhning barcha ishtirokchilari savollarga javob berib bo‘lmagunlarigacha davom etadi.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

2. Ishtirokchilar savol tanlab, guruhning istalgan o‘quvchisiga (navbatma-navbat) savol beradilar. Javob to‘liq bo‘lishi lozim. Javob berishga 1 daqiqa ajratiladi.

3. Ishtirokchilar o‘zlari javob berishni hohlaydigan savolni tanlaydilar. So‘ng bir daqiqa davomida tanlangan savolga navbatma-navbat javob beradilar.

Metodning ahamiyati: O‘quvchilarda tanlash imkoniyati orqali muammolarni maqsadlar sifatida qayta ifodalashga: nimalar qiyinchiliklarni tug’dirayotgani, qoniqtirmayotgani, to‘siqlar yaratayotgani to‘g’risidagi muloxazalardan maqsadlarni qo‘yish va to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llarini izlashga o‘tishga o‘rgatadi.

Fanlararo integratsiyasi: barcha fanlar bilan bo‘liq tushunchalarni qo`llash mumkin va bilimlarini mustahkamlaydi.

4-USUL: “KIM? QACHON? QAERDA?” METODI:

Metodning tavsifi: o‘quvchilarda bu usul faol ta'lim,asarlar yoki tarixiy voqealar va h.k muammolarni muhokama va tahlil qilishda ishlatiladi.

Metodni tashkil qilish: “KIM? QACHON? QAYERDA?” metodi o`quvchilarni uch guruhga guruhlab, har bir guruhga bitta savolni tanlash tavsiya etiladi.

- “Kim?” savolni tanlagan guruh faqat xarakterlar yoki mashxurlar haqida ma’lumot beradi.
- “Qachon?” savolini tanlagan guruh asarda insonning hayot yo‘li bilan bo‘lgan voqea qachon bo‘lgani yoki sanalar haqida ma’lumot beradi.
- “Qayerda?” savoli tanlaganlar esa voqealar qayerda bo‘lganini aytib berishi kerak.

Metodning ahamiyati: Topqirlik, olgan bilimlarini tezda esga olish xususuyati takomillashadi.

Fanlararo integratsiyasi: bu usul asar, hikoya , tarixiy voqealar beriladigan fanlar uchun mos keladi

5-USUL:“OLMA” O‘YINI:

Metodning tavsifi:O‘quvchilarni zeriktirmaslik maqsadida biroz hazil o‘yinlari o‘tkazishni tavsiya etamiz.

Metodni tashkil qilish: Qatnashuvchilar davra qurib o‘tiradilar. Boshlovchi **“**Mening ismim... Men ...ni yaxshi ko‘raman (xohlagan narsa yoki kishini aytishi mumkin) **”**, – deydi va olma (koptok)ni biron kishiga qarab otadi. Olma (koptok)ni ilib olgan ishtirokchi ham, o‘z navbatida, o‘zini shunday tanishtiradi va koptokni boshqa ishtirokchiga uzatadi. O‘yin barcha ishtirokchilar o‘zlarini tanishtirib bo‘lgunlariga qadar davom etadi. Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytilishi

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

mumkin bo‘lgan jumlalar: Men ...ni yaxshi ko‘raman. Bolalagimdan yaxshi ko‘rgan ovqatim ... edi. Men yoqtiradigan rang (gul yoki meva)ni aytishadi.[4;39]

Metodning ahamiyati: o‘quvchida mustaqillik va irodani rivojlantirish, o‘quvchida muloqotga kirishish qobiliyati va dunyoqarashni rivojlantirish.

Fanlararo integratsiyasi: barcha fanlar bilan bo‘liq tushunchalarni qo`llash mumkin va bilimlarini mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI

“Bobolarimizning bebaho merosi” mavzusini o‘qitishda pedagogik adabiyotlardan Sh.Sh.Sharipov, N.S.Saidova, R.J.Yo‘ldoshevlarning interfaol ta’lim usullari – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “BBB” (Bilaman – Bilishni istayman – Bildim), “Rol o‘ynash” kabi metodlari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, muloqot madaniyatini va ijodiy faolligini rivojlantirishda samarali ekani ilmiy asoslab berilgan. Mazkur usullar tarbiya darslarida milliy merosga oid mavzularni o‘qitishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalardan M.Q.Qurbonov, D.R.Raximovalarning ta`kidlashicha pedagogik texnologiyalar asosida darsni loyihalash, ta’lim maqsadlarini aniq belgilash, kutilgan natijalarga erishishda interfaol yondashuvlarning o‘rni keng yoritilgan. Mualliflar ta’kidlashicha, boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanish, hayotiy misollardan foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash dars samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, A.Avloniy, I.Gafurov, B.Qosimovlar ham milliy meros va ma’naviy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ajdodlar qoldirgan ilmiy, ma’naviy va axloqiy merosni yosh avlodga yetkazish ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu qarashlar “Bobolarimizning bebaho merosi” mavzusini o‘qitishda nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 4-sinf tarbiya darslarida milliy merosga oid mavzularni interfaol usullar va pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlaydi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Bugungi kunda o‘quvchilarni o‘qishga qiziqishlari borasida turlicha yondashish, qiziqishlarini bir xil emasliklari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Ularni o‘rab turgan ijtimoiy muhit o‘quvchi yoshlarimiz dunyoqarashlarida o‘z tamg‘alarini qoldirmoqda. Bunday sharoitda tarix o‘qituvchisining vazifasi sinfda mavjud bo‘lgan barcha o‘quvchilar diqqat – e’tiborlarini ularga nisbatan diferensiatsiya usulini qo‘llab, bir vaqtda ularning hammalari uchun maqbul bo‘lgan tarixiy materilni bayon

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

qilish bilan, ikkinchi tomondan har bir o‘quvchining qiziqishlarini hisobga olgan holda unga individual yondashmoqqa harakat qilmog‘i kerak.

Dars jarayonida o‘quvchilar faoliyatiga differensial yondashuv qanday nazorat etilsa, ularning uy vazifalarini bajarishlarini nazorat etish ham shunday amalga oshirib borilmog‘i kerak. Shuni alohida takidlab o‘tish lozimki, tarix darsining mazmuni mustaqil O‘zbekiston Respublikasining yoshlar orasida olib boriladigan mafkuraviy ishlar vaznfalariga mos kelishi, tarix o‘rganishning turmush bilan aloqasini bog‘langanligida, O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat bo‘lishini nazariy va amaliy ishlar bilan bog‘lab olib borishga yo‘naltirilgan bo‘lmog‘i kerak.

Xulosa qilib aytganda, bu interfaol metoddan unumli foydalanish darsning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon etishga, o‘zlarining bilim darjalarini baholay olish, jamoaning fikrini hurmat qilishga hamda o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatadi.

Biz o‘qituvchilar dars jarayonida o‘quvchilarga fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga ehtiyojni tarbiyalab borishni ko‘zda tutamiz. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini aktivlashtirishda IPTdan foydalanish yaxshi samara beradi. [4;60]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. T., O‘zbekiston, 20224.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-1059-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-422-son qarori.
4. Tajimuratov.S.A. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi.
5. A. Shoimov, I. Tojiyeva “Tarbiya fan”. Darslik. 4-sinf. 2023. B.15.
6. A.Shoimov, I.Tojiyeva “Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi” Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. -142-148, 2025-yil. ISSN: 3060-4613
7. A.Shoimov, I.Tojiyeva “Use of pedagogical technologies in teaching the topic of representatives of the Jadidist movement and their activities” Web of Scientist: International Scientific Research Journal. -38-45, 2025-yil. https://wos.academiascience.org

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARGA NISBATAN JAMIYATNING FIKRLARINI O‘ZGARTIRISH

Almardanovna Zulfizar Beknazarovna,
Xalqaro innovatsion universiteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Tirkasheva Zulayho Sodiq qizi,
Xalqaro innovatsion universiteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: almardanovazulfizar@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2434-8386
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.18531725

CHANGING SOCIETY'S ATTITUDES TOWARDS CHILDREN WITH DISABILITIES

Zulfizar Beknazarovna Almardanova,
Lecturer, Department of Pedagogy International Innovative University

Tirkasheva Zulayho Sadiqovna,
Teacher of the Department of “Pedagogy” of the International Innovation University

E-mail: zulayhotirkasheva85@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2434-8386
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.18531725

ИЗМЕНЕНИЕ ОТНОШЕНИЯ ОБЩЕСТВА К ДЕТЯМ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Алмарданова Зулфизар Бекназаровна,
преподаватель, кафедра “Педагогика” Международного инновационного университета

Тиркашева Зулайхо Садиковна,
Преподаватель кафедры “Педагогика” Международного инновационного университета

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nogironligi bo‘lgan bolalarga jamiyatning qarashlari, inklyuziv ta’limni rivojlanish jarayonida xalqaro huquqiy hujjatlar, nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan jamiyatning fikrlarini o‘zgartirish to‘g‘risida ma’lumot beriladi.*
Kalit so‘zlar*: Nogiron, nogironligi bo‘lgan bolalar, jamiyat, inklyuziv ta’lim, xalqaro huquqiy hujjatlar, nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan jamiyatning fikrlari..*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о взглядах общества на детей с инвалидностью, международных правовых инструментах в процессе развития инклюзивного образования и об изменении взглядов общества на детей с инвалидностью.*
Ключевые слова: *Инвалиды, дети с инвалидностью, общество, инклюзивное образование, международные правовые инструменты, взгляды общества на детей с инвалидностью.*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Abstract: *This article provides information on society's views on children with disabilities, international legal instruments in the process of developing inclusive education, and changing society's views on children with disabilities.*

Keywords*: Disabled, children with disabilities, society, inclusive education, international legal instruments, society's views on children with disabilities.*

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Prezident tomonidan 13-oktabr 2020- yilda “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida” gi PQ4860-son qarori, 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi”da, Prezident Shavkat Mirziyoevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkil etadi va bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz.

Nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan jamiyat fikrini o'zgartirish uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish, nogironlik haqidagi noto'g'ri tushunchalarni bartaraf etish, kamsitishga qarshi qonunlarni kuchaytirish va ommaviy targ'ibot ishlari orqali amalga oshiriladi; bu jarayon nogiron bolalarning jamiyatga to'liq integratsiyasi, teng huquqliligi va imkoniyatlarining kengayishini ta'minlaydi, ularga nisbatan hamdardlik va hurmatni kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Nogironning ijtimoiy holati muammosi yaqinda juda ko'p sonli mahalliy tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qildi (V.M. Astapov, O.I. Lebedinskaya, B.Yu.Shapiro, E.F. Achildieva, A.A. Baranov, R.K. Ignatieva, L.K. Grachev, TA Dobrovolskaya, IP Katkova, VV Kuznetsova, SS Kuchinskiy, SP Pyapkov, GG Silaste, NB Shabalina, I. A. Shames, S.P. Shevchuk, Yu.G. Ellanskiy). Shunga qaramay, ushbu muammoning yechimi hali ham ko’proq tahlil va tushunishni talab qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nogironligi bo‘lgan bolalar (bola) —jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatilishiga hamda o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar hisoblanadi.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Nogironligi bo‘lgan bolalarga jamiyatning qarashlari

- kamsitish, ajratib qo‘yish;
- sog‘lom farzandlarini nogironlardan olib qochish;
- nogiron bolalar uyda ta’lim olishi zarur, ular jamiyat orasida yurishi kerak emas;
- ular mehnatga layoqatsiz;
- rahmdillik bilan qarash, achinish;
- imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim olishga qobiliyatsiz, ijtimoiy hayotga moslasha olmaydi.

Inklyuziv ta’lim: Imkoniyati cheklangan bolalarning o‘z sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim-tarbiya olishi, oila muhitida yashashi va ilk yoshdan moslashishni ko‘zda tutadigan ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’limning rivojlanishi nogironligi bo‘lgan bolalarga ta’lim olishning keng imkoniyatlarini beradi:

- nogironligi bo‘lmagan bolalar va shaxslar nogironlik muammolarini tushunishadi;
- nogironligi bor shaxslarning jamiyatdan izolyatsiyasi kamayadi;
- natijada nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida namoyon bo‘ladi va jamiyat rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Inklyuziv ta’limni rivojlanish jarayonida xalqaro huquqiy hujjatlarning o‘rni beqiyosdir:

- 1948 yilda qabul qilingan inson huquqlari umujahon deklaratsiyasidir. Mazkur deklaratsiyada qayd etilishicha: “Har bir inson tengdir”;
- 1959 yilda qabul qilingan bola huquqlari deklaratsiyasida qayd etilishicha, har bir bola jamiyatning to‘laqon a’zosi bo‘lishi uchun, shuningdek, rivojlanishi uchun ta’lim olish huquqiga egadir;
- 1960 yilda qabul qilingan “Ta’lim olishda kamsitishga qarshi kurashish konvensiyasi”dir. Mazkur konvensiyada ta’lim olish jarayonida kamsitilishning har bir shakli taqiqlangan;
- BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1969 yilda qabul qilingan “Ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanish deklaratsiyasi”da aqliy va jismoniy nuqsonlarga ega bo‘lgan insonlarning mehnat qobiliyatini tiklash haqida aytilgan;
- oxirgi xalqaro hujjatlardan biri bu BMTning “Nogironlar huquqlari konvensiyasi” hisoblanadi. Mazkur konvensiya 2006 yil 13 dekabr kuni qabul qilingan. 24-moddasida nogironlarning ta’lim olish huquqlari belgilangan. Ushbu

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

moddada aytilishicha, nogironlarga ta’lim olish borasida teng imkoniyatlar yaratish, ularni kamsitmaslik uchun davlatlar inklyuziv ta’lim tizimini shakllantirishlari lozim.

Har bir inson ta’lim olish, barcha qatori voyaga yetib, jamiyatda erkin yashash huquqiga ega.

XULOSA

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan hozirgikundagi muhim hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan qabul qilingan “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” farmoni hisoblanadi. Inklyuziv ta’limnirivojlantirish borasida mazkur qarorda quyidagilarga e’tibor qaratilgan:

- imkoniyati cheklangan bolalar o‘qiydigan binolarga doir talablarni ishlab chiqilishi;
- imkoniyati cheklangan bolalar tahsil olayotgan maktablarni kerakli adabiyotlar va metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash;
- imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim olish uchun inklyuziv ta’lim tizimini yaratish;
- imkoniyati cheklangan bolalar o‘qiyotgan maktablarni maxsus vositalar, ko‘targich (pandus)lar va xokazolar bilan ta’minlash;
- bu borada faoliyat olib boruvchi kadrlar (pedagog-defektolog, imkoniyati cheklangan bolalarga psixologik va pedagogik ko‘mak beradigan mutaxassislar) bilan ta’minlash;
- jamoatchilik orasida imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim olish huquqlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish.

Nogironligi bo‘lgan bolalar ham alohida – uylaridan chetda emas, balki barcha bolalar singari - ota-onalari bag‘rida, uylariga yaqin maktablarda ta’lim olish huquqlariga egadirlar!

Inklyuziv ta’limning imkoniyatlari:

- inklyuziv ta’lim ajratish iskanjasidan qutulishga imkon beradi;
- maxsus ehtiyojli bolaning o‘z oilasi va jamiyat davrasida bo‘lishiga imkon beradi;
- barcha uchun ta’lim sifatini yaxshilaydi;
- kamsitishlarning oldini oladi;
- inklyuziv ta’lim jamiyatdagi inklyuzivlikka olib keladi.

Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash orqali biz:

- jamiyatda ijobiy munosabatni ishlab chiqish;

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

- ilk yoshdan aralashuv;
- inklyuziv ta’lim muhitini rivojlantirish;
- mos siyosatni ishlab chiqishga ko‘maklashish;
- ijobiy namuna bo‘la oladigan insonlar obrazini yaratish.

Nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan jamiyatning fikrlarini o‘zgartirish orqali biz:

- imkoniyati cheklangan insonlarni jamiyat hayotiga o‘z ulushini qo‘shishga imkon beramiz;
- teng huquqlilik asosida imkoniyati cheklangan va sog‘lom insonlarda ijobiy fazilatlarni shakllanishiga ko‘maklashamiz;
- teng huquqlilik asosida imkoniyati cheklangan va sog‘lom insonlarda ijobiy fazilatlarni shakllanishiga ko‘maklashamiz;
- imkoniyati cheklangan insonlar va sog‘lom tengdoshlari bir-biridan o‘rnak oladigan jihatlarini shakllantiramiz Imkoniyati cheklangan insonlar jamoa hayotiga erta yoshdan moslashish imkonini beramiz.

Jamiyat fikrini o'zgartirish yo'llari:

1. **Inklyuziv ta'lim:** Nogiron bolalarning oddiy maktablarda, nogiron bo'lmagan tengdoshlari bilan birga o'qishini ta'minlash, bu esa o'zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantiradi. Maktablarda nogironlikka qaratilgan kamsitishlarni yo'q qilish, masalan, bir partada o'tirmaslik yoki birga o'ynamaslik kabi holatlarga barham berish.
2. **Targ'ibot va ma'lumotlar:** Media, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim muassasalari orqali nogironlikning turli turlari, ularning sabablari va nogiron bolalarning qobiliyatlari haqida to'g'ri ma'lumotlar tarqatish. Nogiron bolalar hayotining ijobiy namunalarini ko'rsatish, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini namoyish etish.
3. **Qonuniy himoya va huquqlar:** Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi qonunlarni yanada kuchaytirish va ijrosini ta'minlash. Har qanday kamsitish, istisno qilish va cheklashlarni qonuniy jazolash.
4. **Jamoatchilik ishtiroki:** Nogironligi bo'lgan bolalar va ularning ota-onalari uchun qo'llab-quvvatlash guruhlarini tashkil etish. Jamoatchilikni nogironlik masalalarida faol ishtirok etishga chaqirish, tadbirlar, seminarlar o'tkazish.
5. **Yetarli sharoitlar yaratish:** Nogiron bolalar uchun jamoat joylarida (maktab, bog'cha, ko'chalar) moslashuvchan sharoitlar (rampa, maxsus jihozlar) yaratish.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Bu chora-tadbirlar jamiyatda nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan “begona” degan qarashdan “bizning tengdoshimiz” degan qarashga o'tishga yordam beradi.

Har bir bola o‘z uyining oldida sifatli ta’lim olish huquqiga ega!!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shomaxmudova R. “Maxsus va inklyuziv ta’lim” /Toshkent “|Chashmaprint” 2011.
2. Отношение общества к детям с ограниченными возможностями здоровья и детям-инвалидам. – М.: Фонд поддержки детей, находящихся в трудной жизненной ситуации, 2017.–72 с., ил. https://www.hse.ru/mirror/pubs/share/206979080
3. Мамедов К.К, Шоумаров Г.Б. Ақли заиф болалар психологияси-Т.: Ўқитувчи, 1994
4. Рахмонова В.С. Махсус педагогика. Т.: Адабиёт ва санъат, 2005.
5. Специальная психология. Под ред. В.И.Лубовского. - М.: “Академия”, 2005.

VOLUME:1 ISSUE:4

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Karamova Mohinur Faxritdin qizi,
Xalqaro innovatsion universiteti katta o‘qituvchisi

Nasirullayeva Dilso‘z Nodirbek qizi,
Xalqaro innovatsion universiteti talabasi

E-mail: mohinurkaramova573@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2434-8386
Doi:

WAYS TO DEVELOP READING LITERACY IN PRIMARY GRADES

Karamova Mohinur Fakhritdin qizi,
Senior Lecturer, International Innovation University

Nasirullayeva Dilsoz Nodirbek kizi,
Student, International Innovation University

СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Карамова Мохинур Фахритдин кизи,
Старший преподаватель, Международный инновационный университет

Насируллаева Дилсоз Нодирбек кизи,
Студентка, Международный инновационный университет

E-mail: dilsoznasrullayeva@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2434-8386
Doi:
https://doi.org/10.5281/zenodo.18531781

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning zamonaviy metodlari tahlil qilingan. Interfaol strategiyalar, matn bilan ishlashning bosqichma-bosqich modeli va multimediadan foydalanish o‘quvchilarning matnni anglash, fikrlash va qayta hikoya qilish ko‘nikmalarini sezilarli oshirishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar*: o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, matn bilan ishlash, interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash, o‘quvchi motivatsiyasi, o‘qish strategiyalari, refleksiya, o‘qish tezligi, o‘qituvchi mahorati, didaktik yondashuv, multimediadan foydalanish, kompetensiyaviy yondashuv.*

Аннотация: *В статье рассматриваются современные методы развития читательской грамотности у учащихся начальных классов. Изучены эффективность интерактивных стратегий, поэтапная работа с текстом и использование мультимедиа. Результаты исследования показывают, что данные подходы значительно улучшают понимание текста, мышление и мотивацию учащихся, а также повышают качество обучения.*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Ключевые слова: *грамотность чтения, начальное образование, работа с текстом, интерактивные методы, критическое мышление, мотивация учащихся, стратегии чтения, рефлексия, скорость чтения, навыки учителя, дидактический подход, использование мультимедиа, компетентностный подход.*

Abstract: *This article examines modern approaches to developing reading literacy among primary school students. The effectiveness of interactive strategies, a step-by-step text analysis model, and the use of multimedia tools was studied. Findings indicate that these methods significantly improve text comprehension, critical thinking, retelling skills, and overall student engagement in reading activities.*

Keywords: *reading literacy, primary education, working with text, interactive methods, critical thinking, student motivation, reading strategies, reflection, reading speed, teacher skills, didactic approach, use of multimedia, competency-based approach.*

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini shakllantirish ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘qish savodxonligi matnni to‘g‘ri o‘qish bilan cheklanmay, uni anglash, tahlil qilish va fikr bildirish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi [1]. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘qish jarayonida o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantirishni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni talab qiladi [2]. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning samarali metodlarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi metodlar samaradorligini aniqlashdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Nazariy tahlil – o‘qish savodxonligi bo‘yicha ilmiy manbalar, xalqaro baholash tizimlari (PIRLS, PISA) talablari o‘rganildi [3].

Pedagogik kuzatuv – boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayoni kuzatildi.

Eksperimental metod – interfaol o‘qish strategiyalari sinovdan o‘tkazildi.

Suhbat – o‘qituvchilar bilan suhbat orqali amaliy tajribalar o‘rganildi.

Diagnostik topshiriqlar – o‘quvchilarning o‘qish tezligi, mazmunni anglash, qayta hikoyalash ko‘nikmalari baholandi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘qish savodxonligi faqat matnni o‘qish tezligi bilan emas, balki mazmunni anglash, tahlil qilish va baholay olish ko‘nikmalari bilan ham belgilanadi [1]. Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarning kognitiv jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur) matnli axborotni qayta ishlashda muhim rol o‘ynaydi [2].

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Zamonaviy tadqiqotlar o‘qish savodxonligini shakllantirishda interfaol metodlar, xususan, “Insert”, “Klaster”, “Baliq skleti”, “Aqliy hujum” strategiyalarining samaradorligini ko‘rsatadi [3]. Ushbu metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, matnni mazmunan tahlil qilish va asosiy g‘oyalarni ajratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, matn bilan ishlashning bosqichma-bosqich yondashuvi — matnga tayyorgarlik, matnni o‘qish, tahlil va refleksiya bosqichlari — o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishi ilmiy manbalarda qayd etilgan [4].

Xalqaro tadqiqotlar, jumladan PISA va PIRLS natijalari, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasi ta’lim sifatini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri ekanini ta’kidlaydi [5]. Bu manbalarda multimediadan foydalanish, audio-matnlar, vizual materiallar va elektron darsliklarning qo‘shimcha motivatsion ta’siri borligi ko‘rsatiladi [6].

Mahalliy tadqiqotlarda esa o‘qituvchining metodik mahorati, to‘g‘ri tanlangan o‘quv topshiriqlari va o‘quvchilar yosh xususiyatlariga moslashtirilgan dars jarayoni o‘qish savodxonligini oshirishning asosiy omillari sifatida ko‘rsatiladi [7]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga jalb etish, matn ustida birgalikda fikrlash, savol-javob metodlari va ijodiy topshiriqlar o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi [8].

Umuman, adabiyotlar tahlili o‘qish savodxonligini rivojlantirish ko‘p komponentli jarayon ekanini ko‘rsatadi. Unda pedagogik yondashuvlar, o‘quv muhitining sifat darajasi, o‘qituvchi kompetensiyasi va o‘quvchining individual o‘quv strategiyalari hal qiluvchi ahamiyatga ega [9].

NATIJALAR

Interfaol metodlarning samaradorligi oshdi. Klaster, Venn diagrammasi, “Insert”, “Savol-javob kartochkalari” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarda matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini sezilarli oshirgan [4].

Matn bilan ishlashning uch bosqichli modeli o‘zini oqladi: oldindan taxmin qilish, matnni mazmunli o‘qish, refleksiya va baholash.

Bu model o‘quvchilar matnni anglash darajasini oshirdi.

O‘qish motivatsiyasi kuchaydi; Audio matnlar, ilustratsiyalar, sahnalashtirish va kichik guruhlarda o‘qish o‘quvchilarning qiziqishini oshirdi [5].

4. Diagnostika natijalari ijobiy o‘sishni ko‘rsatdi

Eksperimental guruhda:

o‘qish tezligi 15–20 %,

matnni tushunish 20–25 %,

mazmunni qayta hikoya qilish 30 % oshgan.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

O‘qituvchining metodik mahorati asosiy omil sifatida belgilandi

Individual yondashuv, to‘g‘ri tanlangan metod va o‘quvchining faolligini rag‘batlantirish savodxonlik rivojiga bevosita ta’sir qilgani aniqlandi.

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy yod olishga asoslangan o‘qish jarayoni zamonaviy ta’lim talablari bilan mos kelmaydi. O‘quvchi matnni nafaqat o‘qishi, balki uni tahlil qilishi, xulosa chiqara olishi va shaxsiy fikrini bildira olishi lozim [6]. Interfaol metodlarning qo‘llanishi o‘quvchilarning faolligini oshiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Shuningdek, multimediadan foydalanish — audio-kitoblar, animatsion matnlar — o‘quvchilarning idrokiga mos kelishi sababli savodxonlikni tezroq shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA

Tadqiqotdan kelib chiqadigan xulosalar: O‘qish savodxonligini rivojlantirishda interfaol metodlar yuqori samaraga ega. Matn ustida bosqichma-bosqich ishlash strategiyalari o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Motivatsion materiallar (rangli matnlar, audio, dramatizatsiya) o‘qish jarayonini qiziqarli qiladi. O‘qituvchining metodik saviyasi savodxonlikka bevosita ta’sir qiladi.

Tadqiqot natijalari o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan samarali yondashuvlarni tavsiya etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva O. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini samarali tashkil etish metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. G‘ulomov A., Qodirov, A. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlash strategiyalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
4. Karimova D. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlarning qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqot. – Toshkent: TDPU, 2022.
5. PIRLS International Study Centre. PIRLS 2021 Assessment Framework. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2021.
6. OECD. PISA 2022 Results: Reading Literacy. – Paris: OECD Publishing, 2023.
7. Qodirova G.T. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar nutqini rivojlantirish metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
8. Sharipova M. O‘qish jarayonida multimediadan foydalanish samaradorligi. – Pedagogika jurnali, №4, 2021.
9. Vygotsky, L.S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 2012.
10. Ziyamuhamedov B., Abdukodirov A. Ta’lim texnologiyalari asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2020.
11. Snow C. Reading Comprehension: Processes and Practices. – New York: Guilford Press, 2018.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

12. Samadova L. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchi motivatsiyasini oshirishning psixologik omillari. – Toshkent: TDPU, 2020.
13. Shodmonov N. Matn bilan ishlashning bosqichma-bosqich modeli bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2021.
14. National Reading Panel. Teaching Children to Read: Evidence-Based Assessment. – Washington DC, 2020.
15. Soliyeva M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish malakalarini shakllantirish. – Andijon: AndMI, 2019

VOLUME:1 ISSUE:4

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

RAQAMLI MUHITDA SHAXSNING AXLOQIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Asadova Nozima Abdixalil qizi,
Xalqaro innovatsion universiteti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Tirkasheva Zulayho Sodiq qizi,
XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

O‘ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI BO‘YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN YASHIL LOYIHALAR TAHLILI

Tojiyev Sunnat Husniddin o‘g‘li,
Xalqaro innovatsion universiteti
Iqtisodiyot va moliya kafedrasi o‘qituvchisi

ANALYSIS OF GREEN PROJECTS IMPLEMENTED IN ENVIRONMENTAL PROTECTION IN UZBEKISTAN

Tojiyev Sunnat Husniddin ogli,
International Innovative University
Lecturer of the Department of Economics and Finance

АНАЛИЗ РЕАЛИЗУЕМЫХ «ЗЕЛЁНЫХ» ПРОЕКТОВ ПО ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Тоджиев Суннат Хусниддин угли,
Международный инновационный университет
преподаватель кафедры экономики и финансов

E-mail: tojiyev.sunnat0709@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0002-6746-251X2
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.18708975

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishida amalga oshirilayotgan yashil loyihalarning hududiy taqsimoti va ularning ekologik samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda viloyatlar kesimida ekologik tashabbuslarning yo‘nalishlari, ustuvorligi hamda ularning hududiy ehtiyojlar bilan uyg‘unligi yoritilgan. Natijalar yashil loyihalarni manzilli rejalashtirish, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish va yashil iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.*
Kalit so‘zlar: *yashil loyihalar, atrof-muhit muhofazasi, ekologik barqarorlik, hududiy taqsimot, yashil iqtisodiyot, ekologik tashabbuslar.*

Abstract. *This article analyzes the regional distribution and environmental effectiveness of green projects implemented in the Republic of Uzbekistan. The study examines regional priorities of ecological initiatives and their alignment with local environmental needs. The findings highlight the importance of targeted planning of green projects, reducing regional disparities, and ensuring balanced development of the green economy.*
Keywords*: green projects, environmental protection, ecological sustainability, regional distribution, green economy, environmental initiatives.*

Аннотация. *В статье анализируется территориальное распределение реализуемых в Республике Узбекистан «зелёных» проектов в сфере охраны окружающей среды и их экологическая эффективность. Рассматриваются региональные приоритеты экологических инициатив и степень их соответствия локальным экологическим потребностям. Результаты исследования указывают на необходимость адресного планирования зелёных проектов, снижения территориальных диспропорций и сбалансированного развития зелёной экономики.*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Ключевые слова: *зелёные проекты, охрана окружающей среды, экологическая устойчивость, территориальное распределение, зелёная экономика, экологические инициативы.*

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasida yashil loyihalarning hududiy taqsimoti bevosita har bir viloyatning ekologik holati, tabiiy resurslar salohiyati, demografik zichligi va iqtisodiy faoliyat turiga bog‘liq holda shakllanmoqda. Mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan ekologik tashabbuslar soni yildan-yilga ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularning hududiy tarqalishida muayyan nomutanosibliklar mavjud bo‘lib, bu holat loyihalarning manzilli va ehtiyojga mos rejalashtirilishini talab etadi. Ayni paytda eng ko‘p yashil loyiha amalga oshirilayotgan hududlar Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Navoiy, Buxoro hamda Qashqadaryo viloyatlari bo‘lib, bu yerlar aholining zich joylashganligi, sanoat korxonalarining ko‘pligi va ekologik yuklamaning yuqoriligi bilan izohlanadi.

Masalan, Toshkent shahrida “Yashil shahar” tashabbusi doirasida jamoat transportini elektrlashtirish, ekologik toza bog‘lar barpo etish, aholi yashash hududlarida yashil maydonlar ulushini oshirish kabi qator tashabbuslar hayotga tatbiq etilgan. Navoiy viloyatida esa sanoat korxonalari atrofida chang va gaz chiqindilarini kamaytirish maqsadida zamonaviy filtrlash tizimlari joriy etilgan, qayta ishlash zavodlari soni ortmoqda. Buxoro va Xorazm viloyatlarida suv tanqisligini inobatga olgan holda tomchilatib sug‘orish texnologiyalari asosida agroekologik loyihalar amalga oshirilmoqda. Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston hududlarida esa cho‘l hududlarini o‘zlashtirish, o‘rmonzorlarni tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolishga qaratilgan tashabbuslar asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida — Andijon, Namangan va Farg‘onada — aholi zichligi yuqori bo‘lgani sababli, chiqindilarni boshqarish, havo sifati monitoringi va ekologik madaniyatni oshirishga doir mahalliy dasturlar yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, Farg‘ona shahrida amalga oshirilayotgan "Yashil maktablar" loyihasi ekologik tarbiya va ta’lim orqali barqaror iste’mol madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, hududiy tafovutlar nafaqat ekologik sharoitlar, balki tashkiliy resurslar va investitsion salohiyat bilan ham bog‘liqdir.

TADQIQOT METADOLOGIYASI.

Yashil loyihalarning hududiy taqsimotidagi ushbu murakkabliklar ularga kompleks va strategik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Har bir viloyatning ekologik ehtiyojlariga mos loyiha turlari tanlanishi, mahalliy hokimiyat va aholi ishtiroki orqali loyihalarning samaradorligi oshirilishi lozim. Ushbu taqsimot orqali

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

mamlakatda ekologik barqarorlikka erishish va yashil iqtisodiyotni hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

4.2.1-jadval

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yashil loyihalarning hududiy taqsimoti va ustuvor yo‘nalishlari

Viloyat / Hudud	Yashil loyihalar yo‘nalishlari
Toshkent shahri va viloyati	Yashil shahar konsepsiyasi, elektr transport, yashil maydonlarni kengaytirish
Navoiy viloyati	Sanoat chiqindilarini kamaytirish, qayta ishlash zavodlari
Buxoro viloyati	Suv tejash, agroekologik texnologiyalar
Qashqadaryo viloyati	Qayta tiklanuvchi energiya va sug‘orish loyihalari
Xorazm viloyati	Tomchilatib sug‘orish, suv infratuzilmasi modernizatsiyasi
Surxondaryo viloyati	Cho‘l zonasini rekultivatsiya qilish, o‘rmonzorlarni tiklash
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Bioxilma-xillikni saqlash, ekologik monitoring
Farg‘ona viloyati	Chiqindi boshqaruvi, ekologik ta’lim loyihalari
Andijon viloyati	Urbanizatsiyaga mos yashil infratuzilma
Namangan viloyati	Mahalliy ekologik tashabbuslar, havo sifati monitoringi

Manba: *Muallif tomonidan BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP), Jahon banki “Uzbekistan: Green Economy Transition” (2022), Germaniya Iqtisodiyot va Iqlim Vazirligi (BMWK, 2022) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari (PQ–4411, PQ–4576) va “Yashil makon” umumxalq loyihasi to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlar (lex.uz, uza.uz, invest.miit.uz) asosida tayyorlandi.*

Jadvalda O‘zbekiston Respublikasi hududlarida amalga oshirilayotgan yashil loyihalarning asosiy yo‘nalishlari va ularning hududiy taqsimoti umumlashtirilgan. Tahlildan ko‘rinadiki, yashil loyihalarning geografik taqsimoti har bir viloyatning ekologik holati, iqtisodiy faoliyat turi, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va demografik omillarga bog‘liq tarzda shakllanmoqda.

Toshkent shahri va viloyatida “Yashil shahar” konsepsiyasi doirasida transportni elektrlashtirish va yashil infratuzilmani kengaytirish kabi urbanizatsiyaga mos chora-tadbirlar ustuvor bo‘lsa, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida sanoat chiqindilarini kamaytirish hamda qayta ishlash infratuzilmasi rivojlantirilmoqda. Suv tanqisligi yuqori bo‘lgan Buxoro va Xorazm viloyatlarida esa agroekologik texnologiyalar — xususan, tomchilatib sug‘orish tizimlari — keng joriy etilmoqda. Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rmonzorlarni tiklash, cho‘l zonalarini rekultivatsiya qilish kabi bioxilma-xillikka qaratilgan tabiatni asrash loyihalari amalga oshirilmoqda. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida esa chiqindilarni boshqarish va ekologik ta’lim dasturlari orqali aholining ekologik xabardorligini oshirishga e’tibor qaratilgan.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan ma’lumotlar yashil loyihalar respublika bo‘yicha notekis, ammo ehtiyojlarga mos tarzda taqsimlanayotganini ko‘rsatadi. Bu esa O‘zbekistonning ekologik siyosati manzilli yondashuv asosida shakllanayotganidan dalolat beradi va hududlar bo‘yicha barqaror ekologik taraqqiyotga erishishda har bir loyihaning mahalliy kontekstga moslashtirilishi muhimligini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yashil loyihalarni samarali baholash va boshqarish uchun ularni funksional va tematik yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash muhim amaliy vosita hisoblanadi.

Loyihalarning bu tarzda sinflanishi ular orqali ko‘zda tutilgan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarni aniq belgilashga, ularni manzilli rejalashtirish va monitoring qilishga yordam beradi. Hozirgi kunda respublika miqyosida amalga oshirilayotgan yashil loyihalar quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tizimlashtirilmoqda: energetika, suv resurslarini boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash, bioxilma-xillikni saqlash, yashil infratuzilma qurilishi, qishloq xo‘jaligi va ekologik ta’lim.

Energetika yo‘nalishidagi loyihalar asosan qayta tiklanuvchi manbalarga asoslangan bo‘lib, quyosh, shamol va mikroGES qurilmalarini o‘rnatish, mavjud energetika infratuzilmasini “yashil” texnologiyalar bilan modernizatsiya qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu loyihalar orqali karbon chiqindilarini kamaytirish va energiya mustaqilligini oshirish maqsad qilinmoqda. Suv resurslarini boshqarish bo‘yicha loyihalar ichimlik suvi tizimlarini modernizatsiya qilish, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish, kollektor-drenaj tizimlarini optimallashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular suv tanqisligi sharoitida ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Chiqindilarni qayta ishlash yo‘nalishidagi tashabbuslar qattiq maishiy chiqindilarni ajratib yig‘ish, saralash, qayta ishlash va energiyaga aylantirish texnologiyalarini joriy etishga asoslanadi. Bu bilan ifloslanishni kamaytirish va resurslardan ikkilamchi foydalanish imkoniyati yaratilmoqda. Bioxilma-xillikni saqlashga qaratilgan loyihalar yovvoyi tabiat hududlarini kengaytirish, o‘rmonlarni tiklash, invaziv turlarga qarshi kurashish, shuningdek, muhofaza ostidagi hududlarda monitoring tizimlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Yashil infratuzilma yo‘nalishi asosan shaharsozlikda ekologik yondashuvni kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, yashil maydonlar, bog‘lar, veloyo‘llar va ekologik transport tarmoqlarini rivojlantirish orqali urban muhitda sog‘lom ekotizimni shakllantirishni ko‘zlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Qishloq xo‘jaligida esa agroekologik yondashuv, organik dehqonchilik, tabiiy o‘g‘itlar va biotexnologiyalarga asoslangan ekin yetishtirish amaliyotlari joriy etilmoqda. Ekologik ta’lim yo‘nalishida maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlarida ekologik ongni shakllantirishga qaratilgan dasturlar, seminarlar, targ‘ibot materiallari ishlab chiqilmoqda.

Shu tariqa, loyihalarning yo‘nalishlar bo‘yicha tasnifi ularni tarmoqlar kesimida tahlil qilish, samaradorlikni o‘lchash va davlat siyosatini manzilli rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa milliy yashil rivojlanish strategiyasining ilmiy asoslangan, integratsiyalashgan yondashuv asosida shakllanishiga xizmat qiladi.



4.2.1-rasm. O‘zbekistonda 2025-yilda amalga oshirilgan yashil loyihalarning yo‘nalishlar bo‘yicha tasnifi

Manba: *Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi 2024-yil yashil loyihalar dasturi, BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) va Jahon banki “Uzbekistan Green Growth” (2023) hisobotlaridagi 15–27-bet ma’lumotlari asosida tayyorlandi.*

2025-yilda O‘zbekistonda amalga oshirilgan yashil loyihalarning yo‘nalishlar bo‘yicha tasnifini aks ettiruvchi rasmda yettita asosiy yo‘nalish bo‘yicha loyihalar soni realistik model asosida tasvirlangan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, eng ko‘p loyiha — 35 ta — qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol, mikroGES) yo‘nalishiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa mamlakatning energetika tizimini dekarbonizatsiya qilish va energiya mustaqilligini ta’minlash strategiyasiga sodiqligini ko‘rsatadi. Suv resurslarini boshqarish sohasida 28 ta loyiha amalga oshirilgani, ayniqsa suv tanqisligi sharoitida bu yo‘nalishning ustuvorligini aks ettiradi. Bu loyihalar ichimlik

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

suvi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Chiqindilarni boshqarish bo‘yicha 22 ta loyiha hayotga tatbiq etilgan bo‘lib, bu qattiq maishiy chiqindilarni saralash, qayta ishlash va chiqindidan energiya olish loyihalari orqali ifloslanishni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bioxilma-xillikni saqlashga doir 18 ta loyiha esa o‘rmonlarni tiklash, muhofaza etiladigan hududlar tarmog‘ini kengaytirish va yovvoyi tabiat monitoringini rivojlantirishni qamrab oladi. Yashil infratuzilma bo‘yicha 16 ta loyiha — bog‘lar, yashil maydonlar, ekologik transport va shahar landshaftlarini barqarorlashtirish kabi faoliyatlar orqali urban ekologik muvozanatni ta’minlashga qaratilgan.

Qishloq xo‘jaligidagi 14 ta yashil loyiha agroekologik yondashuv, organik dehqonchilik va tabiiy resurslardan tejamkor foydalanishga asoslangan. Nihoyat, ekologik ta’lim va onglilik bo‘yicha 10 ta loyiha maktablar, OTMlar va fuqarolik jamiyati ishtirokida atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Rasmdagi bu taqsimot respublikada yashil loyihalar tematik jihatdan muvozanatli va manzilli tarzda rejalashtirilayotganini, har bir yo‘nalish bo‘yicha ekologik ehtiyojlar va resurs imkoniyatlari inobatga olinayotganini ko‘rsatadi. Shu orqali mamlakatda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida strategik harakatlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Yashil loyihalarning amaliy samaradorligini ta’minlashda monitoring tizimi va baholash mezonlari muhim rol o‘ynaydi. Monitoring — bu loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlarida (rejalashtirish, amalga oshirish, foydalanish) jarayonni nazorat qilish, aniqlik kiritish va baholashga imkon beruvchi mexanizmdir. Baholash mezonlari esa loyiha samaradorligi, barqarorligi va ijtimoiy-ijtimoiy ta’sirini miqdoriy va sifat jihatdan aniqlash imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Yashil loyihalarni baholash va monitoring qilish metodologiyasi”da bu mezonlar aniq belgilangan.

Yashil loyihalar monitoringi odatda uch asosiy bosqichni qamrab oladi: dastlabki (start) monitoring, oraliq (vaqtinchalik) monitoring va yakuniy (post-loyiha) monitoring. Dastlabki bosqichda loyiha oldidan mavjud ekologik holat (bazaviy chiziq) aniqlanadi; oraliq monitoring jarayonida loyihaning amalga oshirish ko‘rsatkichlari o‘lchanadi; yakuniy bosqichda esa loyiha tugaganidan so‘ng erishilgan natijalar barqarorligi va ta’sir doirasi baholanadi.

Baholash mezonlari bir nechta asosiy bloklarga bo‘linadi: ekologik samaradorlik (masalan, chiqindilar hajmining kamayishi, karbon izining qisqarishi,

havoning sifat darajasining yaxshilanishi), iqtisodiy samaradorlik (loyihaning tannarxi, tejalgan resurslar miqdori, qayta investitsiya qilinadigan daromad), ijtimoiy ta’sir (yangi ish o‘rinlari soni, aholining salomatligiga ijobiy ta’sir, ijtimoiy tenglik), hamda institutsional barqarorlik (loyihaning moliyaviy ta’minoti, huquqiy asoslar, boshqaruv salohiyati).

2025-yilda amalga oshirilgan loyihalar monitoringi asosida shuni ko‘rish mumkinki, eng samarali loyihalar qayta tiklanuvchi energiya va chiqindilarni boshqarish yo‘nalishida bo‘lgan. Jumladan, quyosh panellarining o‘rnatilishi natijasida ayrim hududlarda karbon chiqindilari 12–15% ga kamaygan, chiqindilarni ajratib yig‘ish loyihalari esa maishiy chiqindilarning qayta ishlanish darajasini 30% dan 45% gacha oshirishga yordam bergan. Bu natijalar real monitoring uskunalari (masalan, IoT asosidagi datchiklar, masofaviy monitoring tizimlari) orqali aniqlangan va doimiy tarzda yangilanib borilmoqda.

Shuningdek, xalqaro donorlar tomonidan ishlab chiqilgan baholash tizimlari — masalan, GEF (Global Environment Facility) yoki UNDP indikator tizimlari — milliy monitoring strategiyasiga integratsiyalangan bo‘lib, ular orqali O‘zbekiston o‘z loyihalarini xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlamoqda. Ushbu yondashuv mamlakatning ekologik siyosatini ilmiy asoslash, investitsion jozibadorlikni oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi holatini doimiy ravishda nazorat qilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, monitoring natijalari va baholash mezonlari yashil loyihalarning real ta’sirini aniq va obyektiv ko‘rsatishga imkon beradi. Bu esa faqat hisobot uchun emas, balki siyosiy qarorlar qabul qilish, moliyalashtirishni yo‘naltirish va loyihalarni manzilli takomillashtirishda asosiy strategik vosita hisoblanadi.

Yashil loyihalarning samaradorligini aniqlashda monitoring natijalari va baholash mezonlari muhim rol o‘ynaydi, chunki ular orqali loyiha davomida va undan so‘ng erishilgan real natijalar ob’yektiv tarzda o‘lchanadi. O‘zbekistonda bu jarayon uch asosiy bosqichda — dastlabki, oraliq va yakuniy monitoring orqali amalga oshiriladi, har bir bosqichda loyiha ta’sirini aniqlovchi mezonlar aniqlanadi. Jumladan, dastlabki monitoringda loyiha boshlanishidan avvalgi ekologik holat (bazaviy chiziq) aniqlanadi, oraliq monitoringda chiqindilar hajmi, suv va energiya sarfi kabi ko‘rsatkichlar baholanadi, yakuniy monitoring esa karbon izining qisqarishi, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy ta’sir kabi natijalarni o‘lchashga xizmat qiladi. 2025-yil monitoring natijalari shuni ko‘rsatdiki, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari orqali karbon chiqindilarining o‘rtacha 15 foizga kamaygani, chiqindilarni boshqarish loyihalari esa qayta ishlash ulushini 30 foizdan 45 foizgacha oshirgan. Ushbu baholashlar nafaqat milliy, balki xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e’tirof

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

etilgan indikatorlar asosida olib borilgan bo‘lib, ular ekologik siyosatni takomillashtirishda va investitsion resurslarni manzilli taqsimlashda strategik vosita vazifasini bajarmoqda.

4.2.2-jadval

Yashil loyihalarni monitoring qilish bosqichlari va baholash mezonlari tizimi

Monitoring bosqichi	Tavsif	Qo‘llaniladigan mezonlar
Dastlabki monitoring	Loyiha boshlanishidan oldin ekologik holatni aniqlash (bazaviy chiziq).	Ekologik yuklama, mavjud ifloslanish, resurslar holati.
Oraliq monitoring	Loyiha davomida amalga oshirish ko‘rsatkichlarini kuzatish va tahlil qilish.	Ishlab chiqarilgan chiqindi miqdori, energiya tejalishi, suv sarfi.
Yakuniy monitoring	Loyiha yakunida erishilgan natijalarni baholash va ta’sir barqarorligini aniqlash.	Karbon izining kamayishi, iqtisodiy foyda, ijtimoiy ta’sir, barqarorlik darajasi.

Manba: *Muallif tomonidan BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) “Project Monitoring and Evaluation Guidelines” (2022), Jahon banki “Environmental and Social Monitoring Framework” (2021) hamda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi monitoring reglamentlari (2023) asosida tayyorlandi.*

Jadvalda taqdim etilgan “Yashil loyihalarni monitoring qilish bosqichlari va baholash mezonlari tizimi” loyihalarning turli davrlardagi samaradorligini aniqlashda qo‘llaniladigan metodologik yondashuvni tushunarli tarzda aks ettiradi. Jadval uchta asosiy monitoring bosqichini – dastlabki, oraliq va yakuniy bosqichlarni qamrab oladi, har bir bosqichda qo‘llaniladigan baholash mezonlari va ularning mazmuni aniqlik bilan ifodalangan.

Dastlabki monitoring loyihaning boshlanishidan oldin ekologik sharoitni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bu bosqichda “bazaviy chiziq” deb ataluvchi boshlang‘ich ma’lumotlar to‘planadi. Bu ma’lumotlar keyinchalik natijalarni solishtirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, loyiha hududidagi mavjud chiqindi hajmi, havo yoki suv ifloslanish darajasi ushbu bosqichda qayd etiladi.

Oraliq monitoring esa loyiha amalga oshirilayotgan davrda olib boriladi. Bu bosqichda chiqindilar hajmining o‘zgarishi, energiya yoki suv sarfining kamayishi, aholining loyihaga bo‘lgan ishtiroki va ekologik madaniyatining o‘sishi kabi amaliy ko‘rsatkichlar baholanadi. Bu jarayon loyihani real vaqt rejimida baholash imkonini beradi va zarur hollarda tuzatishlar kiritishga xizmat qiladi.

Yakuniy monitoring esa loyiha to‘liq yakunlangach amalga oshiriladi. Bu bosqichda loyiha natijalari uzoq muddatli ta’siri nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Masalan, karbon izining qancha kamaygani, qayta ishlanadigan chiqindilar ulushi qancha oshgani, yoki mahalliy aholining salomatligi va ijtimoiy sharoitlaridagi ijobiy

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

o‘zgarishlar aniqlanadi. Bu natijalar loyiha barqarorligining asosiy mezonlariga aylanadi.

Jadval orqali monitoring tizimining ketma-ketligi, har bir bosqichning funksional vazifasi va u orqali olinadigan natijalar aniq ajratib ko‘rsatilgan. Bu tizim, o‘z navbatida, ekologik siyosatning shaffofligi, samaradorligi va hisobdorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring va baholash mezonlarining mavjudligi loyihalarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va donorlar ishonchini mustahkamlashda ham xizmat qiladi.

Yashil loyihalarning ekologik samaradorligi ularning atrof-muhitga bevosita va bilvosita ta’sirini baholovchi mezon bo‘lib, bu loyiha orqali qanday ekologik natijalarga erishilganini aniqlash imkonini beradi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yashil tashabbuslar doirasida ekologik samaradorlik masalasi markaziy o‘rinni egallab, milliy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylangan. Ekologik samaradorlikni o‘lchashda asosan uchta yondashuvdan foydalaniladi: ifloslantiruvchi chiqindilarni kamaytirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ekotizim xizmatlarini yaxshilash.

Dastlab, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarning kamayishi — ekologik samaradorlikning eng aniq ko‘rinishidir. Jumladan, 2025-yil yakunlari bo‘yicha, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish hisobiga issiqxona gazlari chiqindilari ayrim hududlarda 10–15% ga kamaygan. Ayniqsa, quyosh panellarining keng o‘rnatilishi natijasida Toshkent, Navoiy va Buxoro viloyatlarida karbon izining sezilarli pasaygani monitoring natijalarida qayd etilgan. Bu ekologik yutuqlar faqat havo sifati bilan cheklanmay, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va global majburiyatlarni bajarishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish darajasi ham ekologik samaradorlikni belgilovchi asosiy omillardan biridir. Masalan, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish natijasida suv sarfi 35–40% gacha kamaygan, bu esa ayniqsa Buxoro, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida muhim ekologik natijalarni berdi. Suv infratuzilmasining modernizatsiyasi orqali nafaqat resurslar tejalmoqda, balki tuproqning sho‘rlanish darajasi ham pasaymoqda.

Chiqindilarni boshqarish tizimidagi samaradorlik esa qattiq maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash orqali ifloslanish manbalarini bartaraf etishga xizmat qilmoqda. 2025-yil yakuni bo‘yicha qayta ishlanadigan chiqindilar ulushi 45% ga yetgani qayd etilgan bo‘lib, bu natijaga chiqindilarni ajratib yig‘ish tizimlari, aholini xabardor qilish kampaniyalari va xususiy sektor ishtirokining oshishi orqali erishilgan. Bu ko‘rsatkich nafaqat ekologik tozalikni oshiradi, balki iqtisodiy resurslar tejashga ham olib keladi.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Bundan tashqari, o‘rmonlarni tiklash va himoyalangan hududlarni kengaytirish orqali bioxilma-xillikning saqlanishi, shahar hududlarida yashil maydonlar ulushining oshishi kabi ekotizim xizmatlari yaxshilanmoqda. Masalan, 2025-yil davomida “Yashil makon” loyihasi doirasida mamlakat bo‘ylab 210 milliondan ortiq daraxt ko‘chatlari ekilgan, bu esa havo sifatini yaxshilash, changni ushlash, mikroiqlimni me’yorlashtirish orqali muhim ekologik natijalarga olib kelgan.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yashil loyihalar ekologik samaradorlik nuqtayi nazaridan ijobiy natijalarni bermoqda. Bu natijalar esa nafaqat milliy miqyosda, balki global ekologik majburiyatlar va barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-13, SDG-15) doirasida ham yuksak ahamiyatga ega. Shu sababli, ekologik samaradorlikning muntazam monitoringi va aniq baholash tizimlari kelgusi loyihalarning sifatli rejalashtirilishi va barqarorligi uchun zaruriy shart hisoblanadi.



4.2.2-rasm. 2025-yilda O‘zbekistonda amalga oshirilgan yashil loyihalarning ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari

Manba: *Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, “Yashil makon” umumxalq loyihasi rasmiy hisobotlari (2023–2024), BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) va Jahon bankining “Green Growth Indicators” (2023) ma’lumotlaridan 12–30-betlar asosida tayyorlandi.*

Ushbu rasm 2025-yilda O‘zbekistonda amalga oshirilgan yashil loyihalarning asosiy ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari vizual tarzda ifodalangan. Rasm to‘rtta muhim indikatorni o‘z ichiga oladi: karbon chiqindilarining kamayishi, suv sarfining qisqarishi, qayta ishlangan chiqindilar ulushi va yashil maydonlar (ekilgan ko‘chatlar) soni. Har bir ko‘rsatkich loyiha samaradorligini real natijalar orqali ifodalaydi va atrof-muhit muhofazasiga qo‘shgan hissasini aniqlashga xizmat qiladi.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, eng yuksak natija yashil maydonlar bo‘yicha qayd etilgan — 2025-yilda “Yashil makon” loyihasi doirasida 210 milliondan ortiq daraxt ko‘chati ekilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich havo sifati yaxshilanishi, changni ushlash, karbon so‘rilishini kuchaytirish va shahar mikroiqlimini barqarorlashtirish kabi ko‘plab ijobiy ekologik effektlarni beradi. Qayta ishlangan chiqindilar ulushi 45% ga yetgani esa chiqindi boshqaruvi tizimi samaradorligini ko‘rsatadi. Bu orqali poligonlarga yuboriladigan chiqindilar kamayib, ifloslanish darajasi pasaygan.

Suv sarfining 40% ga kamayishi suv resurslarining tejamli ishlatilayotgani, xususan tomchilatib sug‘orish va suv infratuzilmasining modernizatsiyasi orqali yirik foyda keltirayotganini anglatadi. Bu ayniqsa suv tanqisligi muammosi mavjud bo‘lgan hududlar uchun dolzarbdir. Karbon chiqindilarining 15% ga kamaygani esa qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining faol joriy qilinayotgani va avtomobil gaz chiqindilarini kamaytirish choralari natijasidir.

XULOSA.

Umuman olganda, rasmda taqdim etilgan ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda yashil loyihalarning ekologik samarasi sezilarli darajada ortayotganini ko‘rsatadi. Bu natijalar barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq holda mamlakatning ekologik barqarorlik yo‘lida muhim yutuqlarga erishayotganini anglatadi. Grafik, shuningdek, ekologik siyosatni shakllantirishda, resurslarni taqsimlashda va yangi tashabbuslarni rejalashtirishda muhim tahliliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son Qarori (02.12.2022) – 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024) – “Yashil obligatsiyalar chiqarish tartibi va ularni investitsiyalashtirish mexanizmlari”.
3. Sharipov, A. (2023). Atrof-muhitni muhofaza qilishda xalqaro ekologik konvensiyalar va O‘zbekistonning ishtiroki. Huquq va Tabiat, 2(1), 22–40.
4. Yusupov, A. (2022). Yashil iqtisodiyotni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: Iqtisodiy taraqqiyot nashriyoti.

VOLUME:1 ISSUE:4

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

O‘SMIR QIZLARNING DELINKVENT XULQ-ATVORI MOTIVATSIYASI VA OTA -ONALAR MUNOSABATI BILAN BOG‘LIQLIGI

Xayrullayeva Gulisa Nurullo qizi,
Xalqaro innovatsion universitet Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

MOTIVATION OF DELINQUENT BEHAVIOR IN ADOLESCENT GIRLS AND ITS RELATIONSHIP WITH PARENTAL ATTITUDES

Gulisa Nurullo qizi Khayrullayeva,
International Innovative University
2nd-year Master’s Student in Psychology

МОТИВАЦИЯ ДЕЛИНКВЕНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ-ДЕВОЧЕК И ЕЁ СВЯЗЬ С РОДИТЕЛЬСКИМ ОТНОШЕНИЕМ

Хайруллаева Гулиса Нурулло кызы,
Международный инновационный университет магистрант 2 курса специальности «Психология»

E-mail: gulisa04@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0002-6746-2515
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.18708947

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smir qizlarning delinkvent xulq-atvori motivatsiyasi hamda uning ota-ona munosabatlari bilan bog‘liqligi ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy nazorat darajasi, emotsional qo‘llab-quvvatlash, tengdoshlar ta’siri va shaxsning ehtiyojlari delinkvent xulq shakllanishidagi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqildi. Natijalar ota-ona bilan demokratik va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlarning mavjudligi huquqbuzarlik xavfini kamaytirishini, nazoratsizlik va zo‘ravon tarbiya usullari esa xavfni kuchaytirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari profilaktik va psixokorreksion ishlarni tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *delinkvent xulq-atvor, o‘smir qizlar, ota-ona munosabati, oilaviy tarbiya, motivatsiya, tengdoshlar ta’siri.*

Abstract. *This article provides a socio-psychological analysis of the motivation of delinquent behavior among adolescent girls and its relationship with parental attitudes. The study examines family control, emotional support, peer influence, and personal needs as key determinants of delinquency. The findings indicate that democratic and supportive parenting reduces the risk of delinquent behavior, whereas neglect, harsh control, and family violence increase it. The results are useful for designing preventive and psychocorrective interventions.*

Keywords*: delinquent behavior, adolescent girls, parental attitude, family upbringing, motivation, peer influence.*

Аннотация. *В статье социально-психологически анализируется мотивация делинквентного поведения подростков-девочек и её связь с родительским отношением. Рассматриваются уровень семейного контроля, эмоциональная поддержка, влияние сверстников и личностные потребности как ключевые факторы формирования*

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

делинквентности. Результаты показывают, что демократический и поддерживающий стиль родительства снижает риск правонарушений, тогда как гиперконтроль, безнадзорность и насилие его усиливают. Полученные выводы имеют практическое значение для профилактической и психокоррекционной работы.

Ключевые слова: *делинквентное поведение, подростки-девочки, родительское отношение, семейное воспитание, мотивация, влияние сверстников.*

KIRISH.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida voyaga yetmaganlar orasida delinkvent xulq-atvor muammosi nafaqat kriminologiya, balki ijtimoiy psixologiya, pedagogika va oilashunoslik fanlari kesishgan nuqtadagi dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jamiyatda ijtimoiy nazorat mexanizmlarining transformatsiyasi, axborot oqimining keskin ortishi, virtual muhit ta’sirining kuchayishi hamda an’anaviy oilaviy qadriyatlarning qisman zaiflashuvi o‘smirlar xulqidagi og‘ishlar xavfini oshiruvchi omillar qatoriga kiradi. Ayniqsa, o‘smir qizlarda delinkvent xatti-harakatlarning paydo bo‘lish mexanizmlarini gender xususiyatlari kontekstida o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davri shaxs rivojlanishining emotsional jihatdan eng sezgir bosqichlaridan biridir. Bu davrda identifikatsiya, o‘zini anglash, mustaqillikka intilish va tengdoshlar tomonidan qabul qilinish ehtiyoji kuchayadi. Agar ushbu ehtiyojlar oilada yetarli darajada qondirilmasa yoki ota-ona bilan munosabatlar ziddiyatli tus olsa, o‘smir alternativ ijtimoiy guruhlarga — ba’zan deviant yo‘nalishdagi muhitga — yo‘nalishi mumkin. Shu jihatdan, oila muhitining sifati, ota-ona nazorati darajasi, emotsional yaqinlik va qo‘llab-quvvatlash shakllari o‘smir shaxsining ijtimoiylashuv trayektoriyasini belgilovchi muhim determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy kriminologik va psixologik tadqiqotlar delinkvent xulqning shakllanishi ko‘p omilli va tizimli jarayon ekanini tasdiqlaydi. Unda individual-psixologik xususiyatlar, motivatsion tuzilma, oilaviy tarbiya uslubi hamda tengdoshlar ta’siri o‘zaro murakkab integratsiyada faoliyat ko‘rsatadi. Shunga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlarda aynan o‘smir qizlar kesimida delinkvent motivatsiya va ota-ona munosabatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotning **maqsadi** — o‘smir qizlarning delinkvent xulq-atvori motivatsiyasi va ota-ona munosabatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ijtimoiy-psixologik jihatdan aniqlash va tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat: delinkvent xulq-atvorning yetakchi motivatsion omillarini aniqlash va ularning psixologik mazmunini ochib

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

berish; ota-ona munosabatlarining (avtoritar, liberal, demokratik va beparvo) tipologik xususiyatlarini tahlil qilish; oilaviy muhit ko‘rsatkichlari bilan huquqbuzarlik xavfi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni yoritish; o‘smir qizlar delinkventsiyasining oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari voyaga yetmaganlar profilaktikasi, oilaviy maslahat xizmati hamda ta’lim muassasalarida psixologik kuzatuv tizimini takomillashtirishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi kutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ilmiy manbalarda voyaga yetmaganlar delinkventligi ko‘p omilli hodisa sifatida talqin qilinadi. B.M. Umarov tadqiqotlarida o‘smirlar huquqbuzarligining ijtimoiy-psixologik ildizlari oilaviy muhit, nazorat va shaxsiy ehtiyojlar bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. F.P. Rajabova esa xulq og‘ishlarida ijtimoiy ta’sirlar va psixologik omillar o‘zaro kompleks ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Xorijiy psixologiyada M. Bowen oilani hissiy tizim sifatida talqin qilib, undagi disfunksional aloqalar bola xulqida og‘ishlarga olib kelishini asoslagan. A.S. Makarenko esa ota-ona talabchanligi va nazoratini tarbiyaning muhim sharti sifatida ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda aynan o‘smir qizlar kesimida motivatsion tuzilma va ota-ona munosabatlari o‘zaro ta’siri yetarli darajada yoritilmagan.

METODIKA.

Tadqiqot ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida kompleks tarzda tashkil etildi. Ushbu yondashuv o‘smir qizlar delinkvent xulq-atvorining shakllanishida individual-psixologik omillar bilan bir qatorda oilaviy muhit va ijtimoiy ta’sirlarning o‘zaro integratsiyasini tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Metodologik asos sifatida shaxsning faoliyat va munosabatlar tizimida rivojlanishi haqidagi konseptual qarashlar hamda oilaviy tizim nazariyasi tamoyillaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi:

1. muammo bo‘yicha ilmiy manbalarni tanlash va nazariy umumlashtirish;
2. mavjud empirik ma’lumotlarni qiyosiy-statistik tahlil qilish;
3. olingan natijalarni psixologik interpretatsiya qilish va xulosalash.

Tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat: **Nazariy tahlil** — delinkvent xulq-atvor, motivatsiya va ota-ona munosabatlariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni tizimli o‘rganish, asosiy tushunchalarning mazmunini aniqlashtirish maqsadida qo‘llanildi. **Qiyosiy tahlil** — turli mualliflar tadqiqotlari natijalarini o‘zaro solishtirish orqali delinkvent xulq motivlarining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qildi. **Psixologik umumlashtirish** — olingan nazariy va empirik

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

ma’lumotlarni integratsiyalash hamda ularning ijtimoiy-psixologik mazmunini ochib berishda qo‘llandi. **Statistik ma’lumotlarni ikkilamchi tahlil qilish** — mavjud empirik tadqiqotlar, xususan Ye.I. Kulchiskaya tomonidan keltirilgan foiz ko‘rsatkichlarini qayta interpretatsiya qilish orqali motivatsion tuzilmaning ulushlarini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil jarayonida o‘smirlar delinkvent xulqiga oid mavjud empirik natijalar, jumladan motivatsion komponentlar ulushi (emotsiyalar — 33,4%, ehtiyojlar — 26,4%, dunyoqarash — 23,4%, qiziqishlar — 17%) kontent-tahlil va interpretativ yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqildi. Bu esa delinkvent xulq motivatsiyasining ichki psixologik tuzilmasini aniqroq tavsiflash imkonini berdi.

NATIJALAR.

O‘tkazilgan nazariy va ikkilamchi statistik tahlillar o‘smir qizlar delinkvent xulq-atvorining motivatsion tuzilmasi hamda uning oilaviy omillar bilan bog‘liqligiga oid bir qator muhim qonuniyatlarni aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalar delinkvent xulqning shakllanishi ko‘p omilli va ierarxik tizimga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tahlillar quyidagi asosiy natijalarni ko‘rsatdi:

Delinkvent xulq motivatsiyasida emotsional omillar yetakchi o‘rinni egallaydi (33,4%). Bu ko‘rsatkich o‘smir qizlarda affektiv beqarorlik, impulsivlik, affekt holatida qaror qabul qilish va hissiy zo‘riqishlarni konstruktiv boshqarish ko‘nikmalarining yetarli shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, konfliktli vaziyatlarda “affekt – harakat” zanjiri tez faollashishi kuzatiladi.

Ehtiyojlar (26,4%) delinkvent xulqning ikkinchi muhim motivatsion manbai sifatida namoyon bo‘ldi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davriga xos bo‘lgan ijtimoiy maqom, mustaqillik, moddiy va kommunikativ ehtiyojlarning frustratsiyasi deviant yo‘nalishdagi kompensator xatti-harakatlarni kuchaytirishi mumkin.

Dunyoqarash va tasavvurlar (23,4%) ham sezilarli ulushni tashkil etdi. Antisosial qadriyatlarning internalizatsiyasi, mehnatga nisbatan negativ stereotiplar, “tez muvaffaqiyat” orientatsiyasi kabi kognitiv buzilishlar delinkvent qarorlarning kognitiv asosini shakllantirishi aniqladi.

Ota-ona nazoratining sustligi va emotsional sovuqlik huquqbuzarlik xavfini sezilarli oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ldi. Oilada beparvolik, inconsistent nazorat, haddan tashqari jazolovchi yoki, aksincha, loqayd tarbiya uslublari o‘smir qizlarning ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqish ehtimolini kuchaytirishi kuzatildi.

Demokratik va qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy muhit kuchli himoya (protektiv) omil sifatida aniqlandi. Ota-ona tomonidan emotsional yaqinlik, ochiq muloqot,

oqilona nazorat va ijobiy mustahkamlash mavjud bo‘lgan oilalarda delinkvent xulq ko‘rsatkichlari pastligi kuzatildi.

Tengdoshlar ta’siri oilaviy nazorat zaiflashgan sharoitda keskin kuchayishi aniqladi. Ayniqsa, oilaviy emotsional vakuum mavjud bo‘lganda o‘smir qizlarning referent guruhga konformligi ortib, deviant submadaniyat elementlarini qabul qilish ehtimoli yuqorilashi kuzatildi.

Umuman olganda, natijalar o‘smir qizlar delinkvent xulq-atvori motivatsion tuzilmasida emotsional-regulyativ mexanizmlar yetakchi rol o‘ynashini, biroq ularning faollashuvi ko‘p jihatdan oilaviy muhit sifati va ota-ona munosabatlari modeli bilan shartlanganini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA.

Olingan natijalar delinkvent xulqning shakllanishida oilaviy omillar hal qiluvchi rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o‘smir qizlarda emotsional sezgirlik yuqori bo‘lgani sababli ota-ona bilan munosabat sifati ularning xulq strategiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki:

qattiq jazoga asoslangan tarbiya agressiyani kuchaytiradi;

nazoratsiz erkinlik deviant guruhlarga qo‘shilish xavfini oshiradi;

optimal model — nazorat va qo‘llab-quvvatlash muvozanati.

Bu holat Bowenning oilaviy tizim nazariyasi va Makarenko qarashlari bilan hamohangdir.

XULOSA.

O‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik tahlil o‘smir qizlarda delinkvent xulq-atvor shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanini yana bir bor tasdiqladi. Tadqiqot natijalari motivatsion tuzilma, oilaviy munosabatlar sifati va ijtimoiy muhit omillari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot asosida quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga kelindi:

1. **O‘smir qizlar delinkvent xulqining motivatsion tuzilmasida emotsional omillar yetakchi determinant hisoblanadi.** Affektiv beqarorlik, impulsiv reaksiyalar va hissiy zo‘riqishlarni konstruktiv boshqarish ko‘nikmalarining yetarli shakllanmaganligi huquqbuzarlik xavfini oshiruvchi asosiy psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

2. **Ota-ona munosabatining avtoritar yoki beparvo modeli risk omili sifatida xizmat qiladi.** Haddan tashqari qattiq nazorat, jazoga yo‘naltirilgan tarbiya yoki, aksincha, emotsional sovuqlik va nazoratsizlik sharoitida o‘smir qizlarda ijtimoiy me’yorlardan og‘ish ehtimoli ortadi.

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

3. **Demokratik, qo‘llab-quvvatlovchi va oqilona nazoratga asoslangan oilaviy muhit kuchli profilaktik (protektiv) omil sifatida namoyon bo‘ladi.** Ochiq muloqot, emotsional yaqinlik, ishonch va izchil nazorat mavjud bo‘lgan oilalarda delinkvent xulq ko‘rsatkichlari sezilarli pastligi kuzatiladi.

4. **Tengdoshlar ta’siri ko‘pincha oilaviy disfunksiya fonida kuchayadi.** Oilada emotsional ehtiyojlar qondirilmaganda o‘smir qizlar referent guruh ta’siriga ko‘proq beriluvchan bo‘lib qoladi, bu esa deviant submadaniyat elementlarini qabul qilish xavfini oshiradi.

5. **Profilaktika ishlarini kompleks yondashuv asosida tashkil etish zarur.** Xususan: oilaviy psixoprofilaktika dasturlarini keng joriy etish; ota-onalar uchun psixologik-pedagogik treninglar tashkil etish; o‘smir qizlarda emotsional o‘zini boshqarish va stressga bardoshlilik ko‘nikmalarini rivojlantirish; ta’lim muassasalarida erta diagnostika va psixologik monitoring tizimini kuchaytirish.

Umuman, tadqiqot natijalari voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda oilaviy munosabatlar sifatini yaxshilash hal qiluvchi yo‘nalishlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Mazkur xulosalar amaliy psixologlar, maktab psixologlari, profilaktika inspektorlari hamda ota-onalar bilan ishlovchi mutaxassislar faoliyatini takomillashtirishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umarov B.M. Bolalar va o‘smirlar suisidining yosh va ijtimoiy psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 1994.
2. Umarov B.M. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Rajabova F.P. Voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 2010.

VOLUME:1 ISSUE:4

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

Mundarija
Vol. 1 No. 4 (2025)

T/r	Muallif F.I.SH	Mavzu	Sahifa raqami
1.	Toshtemir Haydarov	NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BOSHQARUV, BUDJETLASHTIRISH VA MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	4-11
2.	Nilufar Xamidova Salimovna	BUGUNGI KUNDA KUTUBXONALAR VA KITOB MUTOLAASIGA MUNOSABAT	12-18
3.	Murodillayev Nurali	RAUF PARFI SHE’RIYATIDA RAMZIY OBRAZLAR VA MILLIY XOTIRA POETIKASI	19-24
4.	Priyanka Prajapati	INGLIZ TILI SINFLARIGA TEXNOLOGIYANI INTEGRATSIYA QILISH	25-28
5.	Abdusalomova Dilfuza	HARBIY MATNLARNING TARJIMASINI KONTEKSTLASH	29-33
6.	U.Z.Buriyeva, Sh.Normurodov	MAQSADLI TILNI O‘QITISHDA AUDIOLINGVAL METOD	34-37
7.	Usmonov Asliddin Mannonovic	SINONIMLARNING MA’NO NOZIKLIKLARINI IFODALASHDAGI AHAMIYATI	38-42
8.	Tilloyeva Dilnoza Habibullo qizi	INGLIZ TILIDA NUTQNING HAR BIR QISMINING VAZIFALARI	43-47
9.	Meylikov Sherzod Shuhratovich	CHET TILI SIFATIDA RUS TILINI O‘QITISHDA VIRTUAL TA’LIM MUHITIDAN FOYDALANISH	48-52
10.	Bo‘riyev Elxamjon O‘roqovich	KONSTANTIN MIXAYLOVICH SIMONOV ASARLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING ADABIY JARAYONDAGI O‘RNI	53-56
11.	Xaydarova Sevara Shaxriddinovna	NAZAR ESHONQUL NASRIDA FRAZEOLOGIZMLARNING MA’NOYIY VA USLUBIY XUSUSIYATLARI	57-62
12.	Shonazarov Jamol Umirzoqovich	YOSH O‘QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH VA INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI	63-68
13.	Razzakova Muqaddas	O‘QUVCHILARNING O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	69-74
14.	Shodiyeva Guliston Temirovna	UMUM TA’LIM MAKTABLARIDA KO‘PBURCHAKLAR VA ULARNING XOSSALARINI O‘QITISH METODIKASI	75-81
15.	Tojiyeva Iroda Sadatovna, Abduqodirova Sabina Mahmudjon qizi	UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA ONA TILI DARSLARIDA MURAKKAB XUSUSIYATGA EGA MAVZULARNI O‘QITISH USULLARI	82-91
16.	Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich,	4-SINF TARBIYA DARSLIGIDAGI “BOBOLARIMIZNING BEBAHO MEROSI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USLUBLAR VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH	92-98
17.	Almardanovna Zulfizar Beknazarovna, Tirkasheva Zulayho Sodiq qizi	NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARGA NISBATAN JAMIYATNING FIKRLARINI O‘ZGARTIRISH	99-104
18.	Karamova Mohinur Faxritdin qizi, Nasirullayeva Dilso‘z Nodirbek qizi	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	105-109
19.	Asadova Nozima Abdixalil qizi, Tirkasheva Zulayho Sodiq qizi	RAQAMLI MUHITDA SHAXSNING AXLOQIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI	110-114
20.	Jumanazarov Baxram Mengqobil o‘g‘li	MASOFAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	115-124

XALQARO INNOVATSION TADQIQOTLAR
Xalqaro ilmiy jurnali
International scientific journal
INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH

21.	**Oltinova Bahora Zaynidinovna**	**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘YINLAR ORQALI SAVODXONLIKNI OSHIRISH METODLARI**	**125-129**
22.	**Tojiyev Sunnat Husniddin o‘g‘li**	**O‘ZBEKISTONDA ATROF MUHIT MUHOFAZASI BO‘YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN YASHIL LOYIHALAR TAHLILI**	**130-140**
23.	**Xayrullayeva Gulisa Nurullo qizi**	**O‘SMIR QIZLARNING DELINKVENT XULQ ATVORI MOTIVATSIYASI VA OTA ONALAR MUNOSABATI BILAN BOG‘LIQLIGI**	**141-146**